

**M.B.RAXIMQULOVA,
D.J.NURMANOVA**

**BOSHLANG'ICH TA'LIM
O'QITUVCHILARINING SINIF RAHBARI
SIFATIDAGI KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISH**
(MALAKA OSHIRISH KURSLARI MISOLIDA)



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIM VAZIRLIGI**

**SAMARQAND VILOYATI
PEDAGOGLARNI YANGI METODIKALARGA O‘RGATISH
MILLIY MARKAZI**

RAXIMQULOVA M.B., NURMANOVA D.J.

**BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARINING SINFLAR RAHBARI
SIFATIDAGI KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH
(MALAKA OSHIRISH KURSLARI MISOLIDA)**

Uslubiy qo‘llanma

JIZZAX – 2023

UO‘K 372.4
BBK 74.2

Raximqulova M.B., Nurmanova D.J. Boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarining sinf rahbari sifatidagi kompetentligini rivojlantirish (malaka oshirish kurslari misolida). Uslubiy qo‘llanma. – Jizzax, 2023-yil. 100 bet.

Mas‘ul muharrir: **Vafoyeva M.** - Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat universiteti, Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim texnologiyasi kafedrasida dotsenti

Taqrizchilar: **Shodiyeva M.** - Qashqadaryo viloyati PYMO‘MM Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta‘lim metodikalari kafedrasida mudiri, Pedagogika fanlari doktori (DSc) dotsenti.
Fayzullayeva G.- Samarqand viloyati PYMO‘MM Pedagogika, psixologiya va ta‘lim texnologiyalari kafedrasida mudiri, dotsenti.

Ushbu uslubiy qo‘llanma sinf rahbarlarining sinf jamoasi bilan ishlashdagi kasbiy kompetentligini optemallashtirishda, uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimida hamda mustaqil kasbiy rivojlanish uchun ishlab chiqilgan.

Shuningdek, unda sinf rahbarlarini sinf jamoasi bilan ishlashda foydalanish masalalari yoritilgan.

Uslubiy qo‘llanma uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi tinglovchilari hamda umumta‘lim maktab o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan.

Ushbu uslubiy qo‘llanma Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi Ilmiy Kengashining 2023-yil 26-oktabr 5-sonli qaroriga binoan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN: 978-9910-9913-2-5

© Raximqulova M.B., Nurmanova D.J.
© Jizzax - 2023

KIRISH

Jahon mamlakatlarida ta'lim olishning maqbul tomonlarini yanada takomillashtirish maqsadida Xalq ta'limi xodimlarining kasbiy mahorati va pedagogik faoliyati samaradorligida islohatlar muhim o'rin tutadigan jihatlardan biridir. Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga asoslangan uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tubdan takomillashtirish masalasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5712-son Farmoni[6]ga muvofiq belgilangan bo'lib, bu uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tubdan takomillashtirish hamda ushbu konsepsiyada ta'lim taraqqiyotini asosiy harakatlantiruvchi kuch va barqaror rivojlanish maqsadlariga yetkazuvchi muhim faoliyat sifatida e'tirof etilmoqda.

Vatanimizda ta'lim sohasi ijtimoiy taraqqiyotning asosiy sohalaridan biri sifatida e'tirof etilganligi sababli ham ta'lim sohasi davlat siyosatida ham ustuvor tamoyili sifatida e'tibor qaratiladi. Davlat siyosati darajasida ishlab chiqilgan asosiy tamoyillarga og'ishmay amal qilishga e'tibor qaratiladi. Xususan, boshlang'ich ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlarning sinf rahbarligi bilan bog'liq layoqatliligini oshirishda o'z ustida ishlashlari, faoliyatini samarali tashkil etish, lavozim vazifalariga vijdonan roiya etishlari, sinf rahbarlarida ushbu xususiyatlarni shakllantirish bilan bog'liq ilmiy qarashlar (g'oyalar, nazariya)lar, zamonaviy yondashuvlar malaka oshirish tizimida "Hayot davomida o'qish" tamoyili asosida takomillashtirib borishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shu bilan birga boshlang'ich sinf o'qituvchilarining sinf rahbarlik sifatidagi kompetentligini rivojlantirishni tashkil etishning metodik jihatlarini aniqlashtirish, kasbiy bilimi, ko'nikmasi va mahoratini uzluksiz yangilab borish, zamonaviy talablarga muvofiq ta'lim sifatini ta'minlash uchun kasbiy kompetentligini optemallashtirish zarurati tug'ilmoqda.

Bugungi jamiyatning tezkor rivojlanishi, rivojlanish jarayonida ta'lim tizimida boshlang'ich sinf rahbari kompetentligini va kasbiy rivojlantirishni amalga oshirish to'g'risidagi masalalar quyidagi uslubiy qo'llanmada batafsil yoritilgan. Jumladan, umumiy o'rta ta'lim maktab

pedagog xodimlar uzluksiz kasbiy rivojlantirishda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining sinf jamoasi bilan ishlashdagi faoliyat mazmunini takomillashtirishning ilmiy-metodik imkoniyatlarini o'rganish, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish, boshlang'ich sinf rahbarining kasbiy bilim, ko'nikma, malaka va mahoratini oshirish, zamonaviy talablarga muvofiq ta'lim sifatini ta'minlash uchun zarur kasbiy tayyorlikni oshirishda pedagogik sharoitlar mavjudligini o'rganildi hamda tahlil qilib vazifalar belgilab olindi.

Uzluksiz ta'lim jarayonida pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlantirishda, boshlang'ich ta'lim tizimida sinf rahbari sifatidagi moslashuvchanligi, layoqatliligini optemallashtirishda pedagogik salohiyatini va mahoratini zamonaviy yondashuvlar asosida rivojlantirish uchundavlatimiz tomonidan bir qator meyoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmonida[3], Vazirlar mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-son Qarorida [4], Prezidentimizning 2017-yil 3-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi faoliyati to'g'risida"gi PQ-3304-sonli Qarorida [5], 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-sonli Farmonida [7], 2020-yil 6-noyabtdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-sonli Qarorlarida [8] shu bilan birga mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur uslubiy qo'llanma muayyan darajada xizmat qiladi.

1-§. Boshlang'ich ta'limda sinf rahbari faoliyatining mazmuni va mohiyati

Mamlakatimizda va dunyo miqyosida bugungi keskin raqobatbardosh, ma'naviy jihatdan yetuk salohiyatga ega, yuksak manaviyatli, kasbiy kompetentligi yuqori pedagog xodimlarning kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish, ularni kasbiy kompetentligini muntazam rivojlantirib borish uchun zarur pedagogik sharoitlarni hozirlash, malakasini oshirish tizimini “Hayot davomida o‘qish” tamoyili asosida takomillashtirib borilmoqda. [7]

Sinf murabbiyi lavozimining ta'lim sohasiga kirib kelish tarixi har bir davrning o‘ziga xos tendensiyalari, rivojlanish va pasayish ko‘rsatkichlari bilan tavsiflab o‘tilgan. MDH davlatlari olimlari tomonidan aynan tadqiqot mavzusi bo‘yicha bildirilgan fikrlar tahlil etilganda, jumladan, Rossiya ta'lim sohasida 1871-yildan rasman murabbiylar tayyorlash tizimi yo‘lga qo‘yilgan, ularning vazifalari aniq belgilangan va bu 1917-yilgacha saqlanib qolgan. Biroq sinf rahbarlari o‘z faoliyatida faqat tartibni saqlash va kuzatish bilan cheklangan, buning eng asosiy sababi sifatida sinf rahbari faoliyati uchun to‘lanadigan ish haqi juda kam bo‘lib, o‘qituvchi ish haqi bilan solishtirganda 15 barobar kam ekanligi asoslab o‘tilgan. 1917-yil Rossiya inqilobidan keyingi davrga kelib yosh avlod tarbiyasi vazifasini guruh rahbarlari (1917-1934 yy.) va sinf rahbarlari (1934 y.dan) amalga oshirdi. 1934-1941-yillar oralig‘ida bu lavozim egalari sinfda tarbiyaviy ishlarni tizimli tashkil etishga mas’ul bo‘lgan, Urush davriga kelib esa (1941-1945 yy.), ular yoshlarni birlashtiruvchi kuch sifatida e’tirof etila boshlangan. 40-yillarda sinf rahbari faoliyatiga yanada jiddiy e’tibor qaratilib, ular o‘quvchining o‘quv jarayonini bevosita kuzatishi, ta'lim va tarbiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam berishi, har bir o‘quvchi faoliyatini sinkovlik bilan o‘rganishi zarurligi ta’kidlandi va me’yoriy huquqiy asoslar bilan ta’minlandi[29].

1970-yilda maktablarning to‘liq umumiy o‘rta ta’limga o‘tishi munosabati bilan bu lavozimga ehtiyoj ortib, sinf murabbiylari faoliyati mazmuni o‘quvchilarni tarbiyalashda shaxsiy yondashuvning mavjudligi, ya’ni ijobiy yo‘nalishlar bilan bir qatorda katta yuklanishlar, turli mehnat

turlari (qishloq xo'jalik ishlari, turli jamoaviy ish shakllari)ga jalb qilish bilan ajralib turardi. 80-yillarda jamiyatdagi iqtisodiy-ijtimoiy muammolarning ko'payishi barcha sohalar kabi ta'lim tizimiga o'zining yomon ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Ushbu jarayonda o'quvchilarni tarbiyalash muammosi va sinf rahbari roliga yanada ko'proq e'tibor berish zarurati yuzaga kelgan edi. Sinf rahbarlarining vakolatlarining o'zgarishiga tarixiy davr ham o'z ta'sirini ko'rsatganligi, ularning xizmatlariga nisbatan davlat tomonidan qaratilgan e'tibor manbalar asosida ifodalab o'tilgan.¹

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab o'qituvchi kasbining ahamiyati va nufuzini ko'tarish maqsadida anchayin ishlar amalga oshirildi. Pedagoglarga ko'rsatilgan e'tibor va g'amxo'rliklar barcha o'qituvchilarning bilim, tajriba va mahoratini muntazam oshirib borish yo'lida o'z ustida ishlashi, tinmay izlanishi hamda o'quv jarayonini zamon talablari darajasida tashkil etishga mas'ulligini yanada chuqur anglashga xizmat qilmoqda. Shuningdek, sohaga yetuk yosh mutaxassislarning kelib qo'shilishiga keng imkonitaylar yaratilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, sinf rahbarlari ayniqsa boshlang'ich sinf o'qituvchilarning sinf rahbarlari oldiga yangi maqsad va vazifalar qo'yildi[34].

Mamalakatimizda boshlang'ich sinflarda sinf rahbari faoliyatini rivojlantirish negizidagi tarbiyaviy ishlardagi muammolari ustida pedagog olimlardan Mavlonova R., Raxmonqulova N., Normurodova B., Matnazarova K., Egamberdiyeva N., Muxsiyeva A., Kiyamov N.lar ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar.

Mavlonova R. Sinf rahbarlari faoliyati negizidagi tarbiyaviy ishlarni rivojlantirish hamda ta'lim jarayoning natijaviyligini amalga oshirishda boshlang'ich sinf rahbarining ta'lim jarayoniga yangiliklarni tadbiq etishga tayyorgarligi yetakchi o'rinni egallashini ilmiy jihatdan asosladi. Shu sababli, "Sinfidan va maktabdan tashqari mashg'ulotlar o'qituvchilar faoliyatining barcha qirralarini qamrab olmog'i lozim. Har bir o'quvchi

¹Raxmatullayeva M.J. O'smirlarda sinfdan tashqari ishlar jarayonida tabiat estetikasiga qiziqishlarni shakllantirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)diss.avtoreverati.: - T.: 2021. - 28b.

bilan yakkama-yakka ishlash, uni ijtimoiy-ruhiy jihatdan o'rganish sinf faoliyatiga yangicha mazmun olib kiradi". [34]

O'quvchilarga har tomonlama ta'lim-tarbiya berish negizida boshlang'ich sinf rahbarining olib boradigan tarbiyaviy ishlari asosiy o'rinni egallaydi. Boshlang'ich sinflarda tarbiyaviy ishlarni tizimli tavsifda yo'lga qo'yuvchi shaxs, o'quvchilarning asosiy murabbiyi bu boshlang'ich sinf rahbari hisoblanadi. Sinf rahbariga o'quvchilar mustaqil faoliyatini shakllantirish, boshlang'ich sinf jamoani jipslashtirish, uyushtirish va tarbiyalash vazifasi, sinfdagi tarbiyaviy ishlariga javobgarlik hissini o'z zimmasiga oladi. Boshlang'ich sinf rahbari sifatida o'quvchilarni barkamol shaxs bo'lib yetishishida, o'quvchilarda intellektual teranlik, jismoniy barkamollik, ruhiy tetiklikni, ilmga intilish, chin e'tiqod, bilimdonlik hislatlarini tarbiyalash to'g'risida va sinfdagi tartib intizomni mustahkamlash borasida o'ziga xos ishlarni amalga oshiradi. Boshlang'ich sinf rahbari ushbu ishlarning barchasini nazariy jihatdan emas, balki ma'sul shaxs sifatida o'z zimmasiga oladi, chunki u maktab pedagogik jamoasi oldida o'ziga topshirilgan sinfdagi o'quvchilarni g'oyaviy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning sifati uchun, tarbiyaviy tadbirlarning mazmuni va tizimli olib borilishi uchun javobgardir.

Boshlang'ich sinf rahbarining asosiy vazifasi sinf o'quvchilarga tarbiya berish va ularni jips jamoa qilib shakllantirishdan iboratdir. Sinf rahbarining sinfdagi o'quv ishlari, o'quvchilar bilimni oshirish masalalari ham uning e'tiborida bo'ladi, ammo bu masalalarni hal etishga u boshlang'ich sinf rahbarimohir murabbiy sifatida amalga oshirishi kerak.

Sinf rahbari avvalo tarbiya berish vosita va metodlari orqali o'quvchilarda o'quv vazifasiga nisbatan ma'suliyatli munosabatda bo'lishni shakllantirishi, u darslarda o'quvchilarning o'zaro yordamini yo'lga qo'yish, ularni maktab ichki tartib-qoidalariga rioya qilishga chaqiradi va ta'lim berish sifatini oshirishda shu sinfdagi dars beradigan barcha o'qituvchilar bilan hamkorlikda ishlaydi.

Boshlang'ich sinfdagi o'quvchilar jamoasi ish olib boradiki, u jamoa o'quvchilarga qo'yiladigan yagona talabga amal qilish, ular bilan

individual ish olib borishni amalga oshirish kerak. Odatda, bu jamoaning tashkilotchisi va yetakchisi sinf rahbari bo'ladi. U sinfida dars beradigan o'qituvchilar olib boradigan o'quv-tarbiya ishlarining xususiyatlarini o'rganadi, ularning o'quvchilarga qo'yadigan talablari hamda o'quvchilar bilan o'zaro aloqalarini o'rganadi, ayrim o'quvchilar xulq-atvori haqida, ularga ta'sir ko'rsatish metodlari haqida o'qituvchilar bilan o'zaro fikr almashib turadi. Uning muhim vazifasi o'qituvchilarning tarbiyaviy ish faoliyatlarini birlashtirib, yo'naltirib borishdan iborat.

Boshlang'ich sinf rahbari ham maktab pedagogik jamoasi va pedagogik kengashining a'zosi hisoblanadi. Sinf rahbari tashkilotchilik va tarbiyaviy ishlarni faqat yolg'iz o'zi emas, balki maktab direktori va uning o'rinbosarlari rahbarligida, o'z sinfida dars beradigan boshqa o'qituvchilar bilan hamkorlikda olib boradi:

- boshlang'ich sinf rahbarining asosiy vazifalari sirasiga har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalash, o'quvchilarni ilm olishga ongli munosabatda bo'lish ruhida shakllantirish;

- boshlang'ich maktabda, sinfda o'quvchilarni bir jamoaga jipslashtirish va faolo'quvchilarni tarbiyalash maqsadida o'quvchilarning ehtiyoj va qiziqishlari, ularning sinfdagi o'zaro munosabatlarini chuqur va har tomonlama tahlil qilish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarni o'zbek va boshqa xalqlarning madaniy, tarixiy, milliy va umuminsoniy an'analarini hisobga olib, xalq pedagogikasining boy tajribasi asosida tarbiyalaydi va shakllantiradi;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasbga yo'naltirish ishlarini olib boradi va har bir o'quvchining qobiliyati va qiziqishlarini tahlil qilib aniqlaydi va yo'naltiradi;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarida ilmiy dunyoqarashini shakllantirish milliy madaniyat asosida xalq hunarmandchiligi kabi vositalar orqali amalga oshiradi;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarning darslarni bo'sh o'zlashtirish sabablarini aniqlashi va bu kamchilni hal etishi;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarning oilasi, turar joylari va turmush sharoitlari bilan tanishish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining ota-onalar bilan uzviy hamkorlikda bo'lish kerak;

- boshlang'ich sinf o'quvchilar darslarni o'zlashtirishini yaxshilash, tartibliligini ta'minlash, o'quvchilar tomonidan maktab Nizomi va ichki tartib qoidalariga rioya qilish bo'yicha sinf majlislarini o'tkazish va o'quvchilarga qo'yilayotgan talablarni bajarishiga erishish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarning badiiy-havaskorlik, sport, hunarmandchilik, milliy madaniyatga oid to'garaklarga qatnashishlarini ta'minlash kabilar sinf rahbarining muhim vazifalaridir. Boshlang'ich sinf rahbari ushbu vazifalarni samarali hal qila olsa sinf rahbarlik faoliyatida yuqori natijalarga erishadi.

O'qituvchi boshlang'ich sinf rahbari sifatida o'z faoliyatini boshlar ekan, 1993-yilda ishlab chiqilgan "Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar Konsepsiyasi"[10], "O'quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi Konsepsiyasi"²da belgilab berilgan talablar asosida o'z faoliyatini yo'lga qo'yadi. Xalq ta'limi vazirining 2021-yil 22-fevraldagi 41-son buyrug'iga ilova sifatida tasdiqlanga "Umumiy o'rta ta'lim muassasasining sinf rahbarlari faoliyatinitashkil etish to'g'risida Nizom"[13] boshlang'ich sinf rahbari ishni o'quvchilarning yosh hususiyatlarini va yoshga doir rivojlanish holatlarini hisobga olib tarbiyaning quyidagi yo'nalishlari-ko'rsatkichlari asosida tashkil etishi kerakligi ta'kidlangan:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining vatanparvarlik ruhida tarbiyalash;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarni milliylik ruhida ahloqiy jihatdan, ma'naviy va huquqiy tushunchalarni shakllantirish;

- milliy istiqloq mafkurasi va uning ruhida tarbiyalash;

- boshlang'ich sinf o'quvchilar iqtisodiy bilimlar asosida savodxonlikni rivojlantirish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilar ekologik tarbiyalanganligini oshirib borish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilar huquqiy jihatdan tarbiyalash;

²"O'quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi Konsepsiyasi" -T.: O'zbekiston, 1993-yil.

- o'quvchilarni jismoniy jihatdan sog'lom bo'lib rivojlanishni ta'minlash;

- boshlang'ich sinf o'quvchilariga mo'ljallab chop etiladigan gazeta, jurnal va bolalar kitobxonligiga targ'ib etish va qiziqtirish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarning ota-onalar bilan hamkorlikda ishlash;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarning ota-onalarni maktabga taklif etish tarbiyaviy soatlar va dars jarayonida ham ishtirokini ta'minlash;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarning ota-onalar bilan zamonaviy aloqa vositalari orqali aloqa bog'lash ishlarini tashkil etish;

- vasiylar va ota-onalar uchun pedagogic yig'ilishlar tashkil etish;

- ota-onalar uchun suhbatlar va ma'ruzalar;

- maslahatlar va savol-javob kechalari;

- konferensiyalar, pedagogik uchrashuvlar uyushtirish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining ota-onalarni pedagogik adabiyotlar haqidaham muntazam ravishda ma'lumot berib borish;

Boshlang'ich sinf o'quvchilarjamoasini tashkil etish, o'quvchilarni tarbiyalangan, uyushgan, ahil guruhga aylantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining har xil ijtimoiy-foydali faoliyatini o'rgatish ishlari boshlang'ich sinf rahbarining tashkilotchilik kompetentligiga bog'liq. Sinf rahbari barcha sinf rahbarlikka oid qobiliyatlari va tarbiyaviy ishlarni yolg'iz o'zi emas, balki maktab direktori va uning o'rinbosarlari rahbarligida, o'z sinfida dars beradigan boshqa o'qituvchilar bilan birgaamalga oshiradi. Boshlang'ich sinf rahbari ish rejasini tuzib, direktorga tasdiqlatadi, o'quvchilarga beriladigan asosiy ta'lim va tarbiya birligiga erishish intiladi. Maktab direktor va uning o'rinbosari sinf rahbari ish faoliyatini nazorat qiladi, boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim-tarbiyasi faqatgina sinf rahbariga emas balki maktab ma'muriyati ham bevosita o'quvchilar tarbiyasi bilan shug'ullanishi kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining faoliyatining asosiy maqsad va vazifalaridan yuzaga keladi, tarbiyaviy tadbirlarning o'rni beqiyosdir. Boshlang'ich ta'lim jarayoni shaxsning ijobiy hislatlarini shakllantirish maqsadida ular uchun maqbul bo'lgan

tarbiyaviy manbalarni tanlab olib, ularga ta'sir etishning yanada yengil vositalari va usullarini ustalik bilan qo'llashni nazarda tutadi.

Boshlang'ich sinf rahbarining ish mazmunini bir necha qismdan iborat ekanligini ta'kidlashimiz mumkin:

Boshlang'ich sinf o'quvchilar shaxsini o'rganish: Boshlang'ich sinfga rahbarlik qilishsinf o'quvchilarini individual tartibdao'rganishdan boshlaydi. Boshlang'ich sinf rahbari o'quvchilarni o'rganishda quyidagi ishlarni bajarishi tavsiya etiladi:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining shaxsiy hujjatlari bilan tanishib chiqadi;

- o'zlashtirishi bo'sh o'quvchilarni aniqlab olish;

- tarbiyasi og'ir bo'lgan o'quvchilar bilan ishlashga oid reja tuzish;

- ota-onasi yo'q, qarindosh urug'larining vasiyligidagi o'quvchilarni o'rganib chiqadi;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarsinf uy sharoitlari bilan tanishib chiqish.

Boshlang'ich sinfni qabul qilgan boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z sinfidagi o'quvchilarning uy sharoitlari o'rganishmaqsadidaharakatlanish rejasiga ega bo'lishi kerak. Davr eng mas'uliyatli davr bo'lib hisoblanadi boshlang'ich sinf rahbari o'tkazadigan tarbiyaviy ta'sirini ham belgilab olishi lozim. O'quvchilarning uyda yashash sharoitlari bilan tanishayotganda, asosiy vazifalarni bajarishni rejalashtirib olishi kerak. Sinf rahbari ota-onalar bilan o'tkazilgan suhbat natijalari alohida daftarga qayd etib baradi. Sinf rahbari o'quvchilarga yaratilgan sharoitni sotsiologik analiz qilish orqali kerakli xulosalarga kelishi mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari jamoasini jipslashtirish va shakllantirish: Boshlang'ich sinf rahbari xushmuomala, bolajon va ma'lum maqsadni ko'zlagan jamoani tashkil etisho'quv tarbiya vazifalarini samarali hal etish uchun imkoniyat yaratadi. Sinf rahbari ba'zio'quvchilarga va butun sinfga o'z saviyasi bilanemas, sinf jamoasida jamoa faoliyatini shakllantirish orqali tashkil etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilar bilimni oshirish, ularning tarbiyasini muntazam ravishda ta'minlab borish: Boshlang'ich sinf

rahbari o'quvchilarning bilim sifatini oshirish to'g'risida qayg'uradi, ba'zi o'quvchilarni orqada qolimasligiga harakat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etish: Ta'lim jarayonida tarbiya berish va darsdan tashqari jarayonda ham tarbiyaviy ishlar uyg'unligi ta'minlanadi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish sinf rahbaridan juda ko'p kuch va bilim sarflashni talab qiladigan jarayondir. Sinf rahbari darsda asosan ta'lim beradi sinfga rahbarlik vazifasi esa asosan darsdan tashqari vaqtlarda bajariladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ota-onalari bilan olib boradigan hamkorlik ishlari: Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarning ota-onalari yoki vasiylari bilan mustahkam hamkorlik qiladi. Maktabning oila bilan mustahkamlash hamkorligi sinf rahbarlari orqali yanada samarali natijaga olib keladi. Boshlang'ich sinf rahbari tarbiyaviy ishining asosiy qismlari mana shulardan tashkil topgan.

Sinf rahbari boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan tarbiyaviy ishlarni tashkil etar ekan quydagi tamoyillarni hisobga olib tashkil etsa maqsadga muvofiq bo'ladi:

Sinf rahbari ishini rejalashtirish tamoyili: Boshlang'ich sinf rahbari ishini rejalashtirish avvalo sinf hujjatlarini yurgizishni o'rganadi. Boshlang'ich sinf rahbari tarbiyaviy ishining serqirraliligi vajiddiy tomoni shundaki, tarbiyaviy ishni rejalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Lev Nikolayevich Tolstoy o'z asarlarida insonlar bir biridan shunisi bilan farq qiladiki, ba'zilari biron bir ishni qilib qo'yib, keyin o'ylasa, ayrimlari oldin o'ylab, keyin ishni qiladi. Bizni xalq pedagogikamizda ham bu borada «Oldin o'yla-keyin so'yla» kabi hikmatlar mavjud. Shu sababli ham insoniyat hayvonot dunyosidan o'ylab ko'rish, fikrlash, munosabat bildirish xususiyatlari bilan farqlanadi.

Fiziolog olim Anoxin P.K. o'zining ilmiy tadqiqotlarida inson o'z faoliyatini amalga oshirmasdan turib o'z ongida tahlil qila olish imkoniyatiga ega, ya'ni harakatlar dasturini rejalashtirib uni amalga oshiradi. O'z rejalarini amalga oshiribgina qolmasdan unga tuzatishlar kiritib boradi. Insonlarning faoliyati qay darajada murakkab bo'lsada va u

qanchalik vaqtni ko'p talab qilsa, shunchalik oldindan o'ylash, rejalashtirish shunchalik ahamiyatli hisoblanadi. Bunday ishlar sirasiga pedagogning ta'limiy va tarbiyaviy ishlarini misol tariqasida keltirish mumkin. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining pedagogik faoliyati uzoq vaqtni talab qiladigan ish hisoblanadi. Sababi tarbiya jarayonida samaradorlikka qisqa muddatda erishib bo'lmaydi. Tarbiya jarayoni rejasiz amalga oshirilganda samarasiz natijaga olib keladi. Puxta rejalkashtirilgan tarbiyaviy ish boshlang'ich sinf o'quvchilarining tarbiyaviy ishlarini to'g'ri tashkil etish imkoniyatini beradi.

Boshlang'ich sinf rahbari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda quyidagi qoidalarga e'tiborini qaratish tavsiya etiladi:

- Boshlang'ich sinf o'quvchilarini barkamol qilib tarbiyalash uchun har xil tadbirlar va tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish kerak;

- Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalash faqat faoliyat jarayonlarida amalga oshirishni inobatga olgan holda o'qish, mehnat, o'yin faoliyalarini uyg'unlashtirish;

- Ma'naviy tadbirlar rejasi sinf rahbari, sinfda dars beradigan o'qituvchilar va ota-onalar hamkorlikda tashkil etish ahamiyatga ega;

- Boshlang'ich sinf o'quvchilar jamoasining har tomonlama rivojlanishi uchun sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar bugungi kunda dolzarb, muhim bo'lgan tarbiyaviy vazifalarni o'z ichiga olishi shu asosda tadbirlar amalga oshirilishi lozim;

- Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar o'quvchilar jamoasining tarbiyasiga va rivojlanishiga xizmat qilishi maqsadga muvofiq.

Boshlang'ich sinf rahbari tomonidan tuziladigan tarbiyaviy ishlar rejasi puxta rejalashtirish orqali amalga oshirilsa pedagogik nuqtai nazardan samarali natija beradi.

Dastlabki bosqichda sinf rahbari o'z sinfining quyidagi jihatlarini bilishi muhimdir:

- sinfning jamoasining tarbiyalanganlik darajasi;
- sinfning jamoasining ijobiy tomonlari;
- sinf jamoasining salbiy tomonlarini aniqlab olishi kerak;

- boshlang'ich sinf jamoasining har tomonlama o'rishini tahlil qilib borish;
 - boshlang'ich sinf jamoasining rivojlanishini diagnostik tahlil qilib borish;
 - boshlang'ich sinf jamoasining ijtimoiy faolligi aniqlab boriladi;
 - boshlang'ich sinf jamoasining qiziqishlarini o'rganib borish;
 - boshlang'ich sinf jamoasida tarbiyaning pasayish sabablarini tahlil qilib boradi;
 - o'quvchilarning badiiy adabiyotlarni o'qish yoki o'qimasligi sababini o'rganib boradi;
 - ommaviy ma'naviy-ma'rifiy ishlar, sport tadbirlaridagi ishtirokini ta'minlab tarbiyaviy ish rejasini mazmunan boyitib borishi kerak.
- Sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirishning ikkinchi bosqichida:
- Turli mavzularda masalan: "Kun tartibiga rioya qilish-madaniyat belgisidir", "Uy vazifalarini bajarish sirlari" mavzusida suxbat uyushtirish;
 - boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan "O'quvchilarning fan to'garaklariga qatnashishi" yuzasidan sinf yig'ilishi tashkil qilinadi, zarurat tug'ilganda ota-onalarni ham jalb qilish mumkin;
 - boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ekskursiyalarni uyushtirish;
 - maktab hududiy sinf o'quvchilari bilan ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilish;
 - boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan "Uy ishlarida o'quvchilar ishtiroki" mavzusida ota-onalar ishtirokida qo'shma yig'ilish tashkil qilinadi;
 - boshlang'ich sinf o'quvchilarini mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash uchun "Mehnat mehnatning tagi rohat" mavzusida davra suhbatini tashkil qilish;
 - boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun badiiy kechalarga o'tkazish;
 - sog'lom avlodni tarbiyalash uchun sport musobaqalari o'tkazish;
 - tabiatga muhabbat ruhini shakllantirish uchun "Qushlar bizning do'stimiz" mavzusida tadbir tashkil etish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun "Olamni o'rganamiz" mavzusida ommaviy axborot vositalaribilan tadbirini tashkil qilish.

Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishning uchunchi bosqichida quyidagi ishlarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

- boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun uy vazifalarini bajarish borasida "Men mustaqil ishlayman" mavzusida tarbiyaviy tadbirlar tashkil qilish;

- o'quvchilarga sinfda dars beradigan o'qituvchilar va ota-onalar bilan uchrashuv tashkil etish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun "Mening uydagi ishlarim" mavzusida o'quvchilar bilan davra suhbat tashkil etish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining uy vazifalarini bajarish bo'yicha metodik tavsiyalar berib borish;

- ota-onalarning birgalikda farzandlari bilan uy vazifalarini bajarishga o'rgatib borish kabi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning to'rtinchi bosqichida tarbiyaviy ishlar rejasini rasmiylashtirish quyidagi tartibda bo'lsa ijobiy samara beradi:

- tarbiyaviy ishlarni choraklik qilib rejalashtirish;
- tarbiyaviy ishlarni yarim yillikka mo'ljallab rejalashtirish;
- tarbiyaviy ishlarni yillik qilib rejalashtirib olish.

Boshlang'ich sinflarda tarbiyaviy ishlarni tizimli rejalashtirish kafolatli natijani ta'minlaydi. Tarbiyaviy ishlarni bunday tartibda rejalashtirish natijani oson va kam kuch sarflab ko'p natijaga erish imkonini beradi.

Sinf rahbarining asosiy maqsadi, o'quvchilarini to'g'ri tarbiyalash jarayonida o'quvchi va sinf rahbari bilan bir-birini tushuna olishi va sinf rahbari tomonidan o'quvchilarga e'tiborliroq bo'lishi kerak.

Sinf rahbarining ish rejasi faoliyatining ajralmas qismi bo'lib, o'qituvchining o'quvchilar tarbiyasiga yo'naltirilgan munosabati ushbu rejada o'z aksini topadi. Sinf rahbarining tarbiyaviy ishlar rejasini tuzish-

bu maqsad va vazifalar, ularga erishish yoʻllari, usul va shakllari belgilab berilgan tarbiyaviy jarayonning loyihasini ishlab chiqish demakdir.

Sinf rahbarining tarbiyaviy ishlar rejasini tuzish-bu maqsad va vazifalar, ularga erishish yoʻllari, usul va shakllari belgilab berilgan tarbiyaviy jarayonning loyihasini ishlab chiqish demakdir.

Boshlangʻich sinfrahbari tomonidan olib boriladigan tarbiyaviy ishlardan koʻzlangan maqsad, barkamol, maʼnaviy rivojlangan intellektual va axloqiy rivojlangan shaxsni shakllantirishdan iborat. Shunga koʻra boshlangʻich sinf rahbari va oʻquvchilar faoliyatning mazmuni, tashkiliy shakllari va usullari oliy maqsadlarga erishish yoʻlidagi say-harakatlarni jadallashtiradi.

Umumiy oʻrta taʼlim muassasalarining eng asosiy vazifasiyosh avlodni intellektual jihatdan yetuk, jismonan va axloqan rivojlanishirishga olib keladi. Shu sababliboshlangʻich sinf oʻquvchilarining qobiliyatlari va qiziqishlarini har tomonlama rivojlantirishda zamon talablariga mos ravishda imkoniyatlar yaratishni asosiy ishlardan biri qilib qoʻyadi.

Zamonga mos ravishda kamol topayotgan yosh avlod uchun boshlangʻich sinf rahbari oʻz oʻquvchilaridan har doim xabardor boʻlishi, ularning taqdiri bilan qiziqishi kerak. Shu sababli boshlangʻich sinf rahbari har bir tarbiyaviy ishlarni rejali tartibda amalga oshirishi tarbiya jarayonida muhim ahamiyatga ega. Tarbiyaviy ishlardasinfr ahbari tomonidan toʻgʻri rejalashtirilgan tarbiyaviy ishlar rejasini yoʻl qoʻyilishi mumkin boʻlgan har qanday xatoning oldini olishga xizmat qiladi. Boshlangʻich sinfrahbarlari tomonidan rejalashtirilgan tarbiyaviy ishlar nafaqat ijtimoiy hayotda balki taʼlim muassasalarida tartib intizomni toʻgʻri yoʻlga qoʻyishda ham alohida ahamiyat kasb etadi. Boshlangʻich taʼlimda shartli ravishda qabul qilingan quyidagi ish rejalarmavjud boʻlib, ular oʻzining baʼzi bir jihatlari bilan harakterlanadi. Masalan:

- boshlangʻich sinfning maʼlum istiqboli davriga moʻljallab tuziladigan ish rejasini.

Mazkur reja umumtaʼlim maktabining istiqbol rejasiga mos holda tuziladi va tasdiqlanadi;

- maktablarining o'quv yili uchun mo'ljallab tuzilgan ish rajasiga ko'ra boshlang'ich ta'limning kalendar ish rejasi tuzuladi;

- umumta'lim maktabining joriy ish rejasi.

Ushbu reja umuta'lim maktablarining bir o'quv yiliga mo'ljallangan bo'lib tarbiyaviy ishlar mazkur ishrejasi asosida ishlanadi. Bunday rejalar asosiga:

- maktab direktori va o'quv ishlari bo'yicha direktoro'rinbosarining bir yillik ish rejasi;

- direktorning boshlang'ich sinf bo'yicha maktab direktori o'rinbosarining bir yillik ish rejasi;

- umumta'lim maktab direktorinig ma'naviy ishlar bo'yicha o'rinbosarining bir yilga mo'ljallab tuzilgan tarbiyaviy ishlar ish rejasi;

- boshlang'ich sinf metod birlashmasining ish rejasi;

- boshlang'ich sinf rahbarining tarbiyaviy ishlar rejasi.

Mazkur ish rejalar asosida ijodiy va maqsadli faoliyatni amalga oshirish, ishni to'g'ri rejalashtirish asosida belgilangan tadbirlarni hayotga tadbiq etish mahoratiga, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan maqsadga muvofiq tarzda samarali foydalanishga bog'liq.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida tarbiyaviy rejalarini amalga oshirish quyidagicha amalga oshirish mumkin:

- ta'lim sohasidagi boshqaruv tashkilotlar, xalq ta'limi bo'limlari vabilan integratsion aloqalarning to'g'ri yo'lga qo'yish orqali amalga oshirish mumkin.

- boshlang'ich sinfga o'qituvchisi difatida kasbiy layoqatli, qobiliyatli, pedagogik mahoratli, halol, zamonaviy bilimlar bilan qurollangan pedagoglarni jalb qilish;

- kasbiy yetuk, layoqatli, kompetentligi yuqorimutaxassislarni to'g'ri tanlash;

- pedagogik xodimlarning shaxsiy ish rejaları ilmiy asosda maqsadga muvofiq tuzilganligi;

- maktab rahbariyati tomonidan nazorat tizimining adolat mezonlari asosida ishlab chiqilganligi;

Maktablarda tarbiyaviy ishlarni samarali rejalashtirishda quyidagilarga rioya qilish shart:

- tarbiyaviy ishlarni tizimli ravishda tashkil qilish;
- boshlang'ich sinflarda tarbiyaviy ishni rejalashtirishda amalga oshiriladigan ishni to'liq tasavvur qila olish muhim hisoblanadi;
- boshlang'ich sinflarda tarbiyaviy ishlarning samaradorlik darajasini ilmiy asosda aniq tasavvur qila olish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tarbiyaviy ishlarni to'g'ri yo'naltirish tarbiya tizimining vositalaridan samarali maqsadga muvofiq tarzda foydala olish;

Boshlang'ich sinf rahbarining tarbiyaviy ishlarini rejalashtirishda maktabning tarbiyaviy ishlariga mos ravishda rejalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Tarbiyaviy ishlarni to'g'ri rejalashtirish tamoyillari quyidagicha:

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning ilmiylik tamoyili. Bu tamoyil tarbiyaviy ishlarni to'g'ri tashkillashtirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Rejalashtirilishi nazarda tutilayotgan har bir tarbiyaviy ishlar rejasi birinchi navbatda haqqoniy, real bo'lishi lozim. Mavjud holatni tushunib yetish uchun uni ilmiy jihatdan to'g'ri tahlil qilish kerak. Ilmiylik tamoyili asosida tarbiyaviy ishlarni to'g'ri rejalashtirish jarayonlarida o'qituvchi ro'y berayotgan holatlarga pedagogik, psixologik va ijtimoiy nuqtai nazardan yondoshuvni amalga oshirishsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishning demokratik tamoyili. Ushbu tamoyil asosan boshlang'ich ta'lim tizimida tarbiyaviy tadbir ishtirokchilarining bir-birini tushunishga asoslanadi. To'g'ri rejalashtirilgan tarbiyaviy ish reja puxta o'ylab, pedagogik ish tajribasi yuqori o'qituvchilar bilan maslahatlashib, kengashga tayanib tuziladi va tasdiqlanadi. Mazkur asosda tuzilgan rejalar ilmiy-metodik va pedagogik amaliy jihatdan pishiqligi bilan ajralib turadi. Demokratik tamoyil asosida rejalashtirilgan tarbiyaviy ish rejaning bir kishi tomonidan emas, balki pedagoglar jamoasi tomonidan ishlab chiqilganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda tarbiyaviy ishlarni maqsadga muvofiq tarzda

samarali tashkil qilish, boshlang'ich sinf o'quvchilarini barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda, demokratik tamoyil asosida tuzilgan ish reja ayni muddao hisoblanadi.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda boshlang'ich sinf rahbari tajriba ortirgan sari oddiy ishlardan murakkabroq tarbiyaviy ishlarga qiziqishi ortib boraveradi. Rejalashtirilgan tarbiyaviy ishlar muvaffaqiyatli boshlangani yoki yakunlangani emas, balki undan o'quvchilar qay darajada tarbiyaga ega bo'lganligi ko'proq ahamiyatga ega hisoblanadi. Xulosa qilish mumkinki, o'quvchilar tarbiyaviy tadbirlarda ishtirok etish orqali muhim insoniy fazilatlarga ega bo'lib boraveradi.

Boshlang'ich sinf rahbarining sinfda va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlari natijaviyligi albatta tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish sifatiga bog'liq. Boshlang'ich sinf rahbarining tarbiyaviy ish rejasi o'quvchilarning har tomonlama rivojlangan barkamol shaxs sifatida yuksalishini nazarda tutadi. Tarbiyaviy ishlardan kutilayotgan kafolatlangan natija oshishida sinf rahbari quydagilarga e'tibor qaratishi lozim:

- tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda maktabning maqsad va vazifalarini aniqlash;
- boshlang'ich sinf o'quvchisining psixik rivojlashinining qonuniyatlarini bilishi;
- boshlang'ich sinflarda tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda aniq maqsadni belgilash;
- boshlang'ich sinflarda tarbiya vazifalarini aniq belgilash va to'g'ri bajarishga erishish;
- boshlang'ich ta'limda tarbiya qoidalarini to'g'ri tanlash va unga amal qilishning muhimligi;
- boshlang'ich sinflarda samarali tarbiyalashning metodlarini to'g'ri tanlash;
- tarbiya jarayonlarining to'g'ri shakllarini tanlashi;
- tarbiya vositalarinidan o'z vaqtida foydalana olishini;
- oldindan ko'ra olishni;
- tarbiya natijalarini aniq tasavvur qila olishni taqoza etadi.

Boshlang'ich sinf rahbari tarbiyaviy ishlar rejasini tuzishda quyidagi asosiy talablarni e'tiborga olishi kerak:

- tarbiyaviy ishlar jarayonida tarbiyaviy vazifava maqsadlarning aniq va to'g'riligi;

- ma'naviy- ma'rifiy tadbirning detallashtirilganligiga e'tibor berish;

- o'tkazilayotgan tarbiyaviy tadbirlarning realligi;

- ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni rejalashtirishda variativlikka ahamiyat berish;

- tashkil etilayotgan tadbirning tizimliliigi;

- dolzarb mavzularda ma'naviy tadbirlarni tashkil etish;

- boshlang'ich sinf rahbarining pedagogning rahbarlik layoqati;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining umumiy faolligini hisobga olish;

- boshlang'ich ta'lim jarayonida sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarning ahamiyatini hisobga olish;

- boshlang'ich ta'limda maktabdan tashqari ishlarni tizimli ravishda yo'lga qo'yish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarning individual va yoshga oid xususiyatlarini hisobga olish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasiga yetarli darajada munosabatda bo'lish;

- tarbiyaviy tadbirlarni tashkil qilish va o'tkazishda o'quvchilarning sharoitlarini hisobga olish lozim;

- boshlang'ich sinf rahbari tarbiyaviy ishlar rejasining maktabning istiqbol rejalari bilan mosligiga alohida ahamiyat berish maqsadga muvofiq.

Boshlang'ich ta'limda tarbiyaviy ishlar tashkil etilganda erishilgan tarbiya natijalarini tahlil qilish va hisobga olishning mazmuni:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining tarbiyaviy ishlarga qatnashishini va faoliyat natijaviyligini tahlil qilib borish;

- boshlang'ich ta'lim metod birlashma yig'ilishlarida tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va erishilgan natijalarini diagnostikasini shakllantirish;

- Pedagogik Kengashining yig'ilishlarida reja asosida o'zining ma'naviy-ma'rifiy faoliyati haqida ma'lumot berib borish ham boshlang'ich sinf o'qituvchisining sinf rahbari sifatidagi kasbiy kompetentligining rivojlanib borishida muhim rol o'ynaydi.

Boshlang'ich sinf rahbari tarbiyaviy ishlar samaradorligini aniqlashda va unga baho berishda quydagi jihatlarni e'tibordan chetda qoldirmasligi tavsiya etiladi.

- o'tkazilayotgan tarbiyaviy ishlarning o'quvchilarni axloqiy jihatdan shakllanishidagi ta'siri;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarning umumiy faolligiga ta'siri;


- boshlang'ich sinf tadbirlarida o'quvchilar erkin qatnashish istagining paydo bo'lishida;

- boshlang'ich sinf jamoasida o'quvchilarning o'zaro do'stona munosabatlariga;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarning tarbiyaviy ishlar jarayonidagi ijodkorligiga;

- o'tkazilayotgan tadbirlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarning dunyoqarashi shakllanishga;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarning tarbiyaviy ishlar natijasida ma'naviy saviyasi va qiyofasining shakllanishiga.



1- jadval. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish shakllari.

Boshlang'ich sinflarda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari va bu borada to'plangan tajribalar asosida tarbiyaviy tadbirlarning namunaviy pedagogik tahlilini keltiramiz:

1. Tarbiyaviy tadbirni tashkil etishda tahlilni amalga oshirish yuzasidan ma'lumotlar: sana, maktab, sinf, o'qituvchilar va tadbir mavzusi, qatnashchilar;

2. Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishning shakiliy jihatlari suhbat, badiiy kecha, ko'rik-tanlov, davra suhbat va tarbiyaviy soatlar, uchrashuvlar;

3. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga mo'ljallangan ma'naviy-ma'rifiy tadbirning maqsad va vazifalarining aniq belgilab olinish;

4. Tarbiyaviy ishlar jarayonida tadbir rejasining aniq maqsadni ko'zlaganligi;

5. Boshlang'ich sinf o'qituvchining tayyorgarligi, o'z-o'zini tutishi, pedagogik mahorati, nutqi, mimika, pantomimika, jestlar;

6. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tadbirga ruhiy, didaktik tayyorligi;

8. Tadbirda zamonaviy texnik vositalardan foydalanishi;

9. Boshlang'ich sinf o'quvchilarni tadbirga to'liq jalb qila olish;

10. Tarbiyaviy tadbirdan o'quvchilarning ma'naviy ozuqa olishi, ijobiy nuqtai nazardan hissiy tas'irlana olishiga erish;

11. Tarbiyaviy tadbir jarayonida tarbiya tamoyillarining qo'llanilishi.

12. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning tadbirga mas'uliyat bilan yondoshuviga erishish.

13. O'quvchilar ota-onalarning tadbirga jalb qilish va ota-onalarning ham faol qatnashishi;

14. Boshlang'ich sinf o'quvchilar tomonidan mustaqil xulosalar chiqara olishi va ijodiy yondoshuvi.

15. Tadbir bo'yicha yakuniy xulosa: tadbirning oldiga qo'yilgan maqsadga erishilganligi, tadbirning yutuq va kamchiliklarini aniqlash, o'quvchilarning tarbiyasiga qo'shgan xissasini aniqlash .

Boshlang'ich sinf rahbari o'z faoliyatini amalga oshirishda yuqorida ta'kidlangan xususiyatlarga ahamiyat bersa o'z ma'naviy-ma'rifiy faoliyatida samarali natijalarga erishadi.

2-§. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining sinf rahbari sifatidagi faoliyatini tashkil qilishning mavjud holati

Zamonaviy ta'lim sharoitida umum ta'lim maktablaridagi tarbiya ishlarini amalga oshirayotgan pedagogik jamoa oldiga juda dolzarb vazifalarni yuklanmoqda. Yosh avlodning dunyoqarashini tarkib toptirish, siyosiy, g'oyaviy jihatdan tarbiyalash, yuksak ma'naviy fazilatlar ruhida tarbiyalash, mehnatga to'g'ri munosabatni shakllantirish va boshlang'ich sinf o'quvchilarda ongli kasb tanlash ko'nikmalarini shakllantirish kerak. Boshlang'ich sinflarda tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan ishlarni tizimli tashkil etadi. Ushbu vazifalarni hal qilishda sinf rahbarining ahamiyati katta.

Boshlang'ich sinf sinf rahbari bajaradigan vazifalar quyidagilar hisoblanadi:

1. Sinf rahbarlik faoliyatida tarbiyaviy ishlarni amalga oshiradi. Ushbu vazifani sinf rahbarining o'zi bajaradi sinfda dars berayotgan o'qituvchilari bilan aloqa o'rnatadi, hamkorlikda o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini rivojlantirib boradi. Darsdan tashqari vaqtlarda o'quvchilar bilan rejaga muvofiq tadbirlarni tashkil etadi va sinf jamoasining jipsligini ta'minlaydi.

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishi va qobiliyatini o'stirishga harakat qiladi, o'quvchilarning o'ziga xos-ruhiy xususiyatlarini hisobga olib hayotiy maqsadlarini va kasbga yo'naltirish ishlarini to'g'ri tashkil etish boshlang'ich sinf rahbarining muhim vazifasidir. Shu bilan birga o'quvchilarning sog'ligini mustahkamlashga ham mas'ul hisoblanadi.

3. O'quvchilarning darsda o'zlashtirishini ta'minlash boshlang'ich sinf rahbarining diqqat markazidagi masaladir. Ayniqsa boshlang'ich sinflarda sinf rahbari shu masalaga alohida e'tibor berishi kerak.

O'quvchining kundalik o'zlashtirishidan xabardor bo'lib turadi va har bir o'quvchilarga metodik tavsiyalar berib boradi. O'zlashtirishda bo'shliqlar kuzatilayotgan o'quvchilarni nazardan chetda qoldirmay o'z vaqtida yordam ko'rsatadi.

4. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarishini to'g'ri tashkil etish ham muhim hisoblanadi (3-4 sinflarda), o'quvchilar ishtirokida sinf jamoasining ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilish, maktab miqyosida uyushtirilayotgan tadbirlarda ham o'z sinfining faol qatnashishini nazorat qiladi va ta'minlaydi.

5. Boshlang'ich sinfo'quvchilarining ota-onalari, mahalladagi boshqa ijtimoiy institutlar bilan shu bilan birga muassasalar va korxonalaridagi, yoki boshqa xomiylikka oluvchilar bilan yaqin aloqada munosabat o'rnatadi.

6. Boshlang'ich sinf rahbari sinf ishlari bilan bog'liq hujjatlarini yuritishga bevosita mas'uldir. Jumladan: o'quvchilarning kundaliklari, sinf jurnali, o'zlashtirish tabellar, o'quvchilar portfoliosi, shaxsiy ma'lumotlari, ish reja va sinf rahbari hisobotlarni shakllantirib boradi.

7. Boshlang'ich sinf rahbarining asosiy vazifalaridan biri fan o'qituvchilari orasida o'quvchilarga nisbatan yagona talablar o'rnatilishiga erishadi, oila bilan maktab o'rtasidagi aloqani mustahkamlaydi, ota-onalarga mo'ljallangan pedagogik ma'ruzalar tashkil etadi, o'quvchilarni har tomonlama rivojlanishini ta'minlash yuzasidan metodik tavsiyalar beradi.

Boshlang'ich sinf rahbarining murakkab vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilishi sinf rahbarining shaxsiy fazilatlariga chambarchas bog'liq. O'qituvchiga qo'yiladigan talablar bilan qiyoslanganda boshlang'ich sinf rahbarining shaxsiy sifatlariga qo'yiladigan talablar unchalik farq qilmaydi. Boshlang'ich sinf rahbari bolalar ma'naviy jihatdan andoza oladigan shaxs sifatida ham e'tirof etiladi.

Boshlang'ich sinf rahbarining mavqei va erishgan obro'si yuqori bo'lishi ham muhim o'rin tutadi. Boshlang'ich sinf rahbari o'zining bilimini oshirib boradi va fan yangiliklarini o'zlashtirib borib kasbiy kompetentlikka erishadi. Boshlang'ich sinf rahbarining tarbiyachi

sifatidagi vazifalarini qay darajada muvoffaqiyat bilan bajarishi uning shaxsiy fazilatlari, ma'naviy qiyofasi o'quvchilar ongining va xulqining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Boshlang'ich sinf rahbari ana shu sifatlarni egallagandagini o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsata oladi. Boshlang'ich sinf rahbari uchun ko'nikma va malakalarga ega bo'lishni o'zi yetarli bo'lmaydi. Boshlang'ich sinf rahbari o'z tarbiyaviy faoliyatida insonparvarlik fazilatlari yuksak darajadanamoyon qiladi, intizomi, odamiyligi, o'z ishiga sadoqati, axloqiy sifatlari bilan ham o'quvchilarga emotsional ta'sir ko'rsatadi. Boshlang'ich sinf rahbarining juda ko'p sifatlarni: bilim, keng fikrlilik, xushmuomalaligi, bolajonligi, tarbiyachilik qobiliyati, serzavq temperament, bolalarga bo'lgan cheksiz muhabbat, nazokatlilik, adolatliligi, pedagogik nazokati, vazminlik va sipolik kabi fazilatlar uning ma'naviy-ma'rifiy faoliyatida yuksak natijani qo'lga kiritishda muhim hisoblanadi. Boshlang'ich sinf rahbarining tarbiyachilik mahoratining qay darajada taraqqiy etganligi uning kasbiy muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Sinf rahbarining asosiy quroli tarbiyachilik texnikasidir.

Boshlang'ich sinf rahbarlarining dunyoqarashi, madaniyat darajasi kengligi, takt, pedagogik odob, pedagogik talablarga rioya qilish, har bir bolaga hurmat bilan unga nisbatan talabchanlikni to'g'ri yo'naltirish, o'z muomilasini tinimsiz oshirib borish, tashkilotchilik malakalariga ega bo'lish bilan birga sinf rahbarlik ishiga ijodiy yondashish lozim. Boshlang'ich sinf rahbarining o'zio'quvchilarni tarbiyalamoqchi bo'lgan g'oyaviy-axloqiy barkamollikga mos bo'lishi, bir so'z bilan aytganda tarbiyalangan bo'lishi lozim. Xato tarbiyalashning asosiy sababi bolaning oldiga qo'yilayotgan talablar, meyoriy ko'rsatkichlar tarbiyachi temperamentida har doim namoyon bo'lavermaydi.

Boshlang'ich sinf rahbarining faol fidoiy sifatida na'muna ko'rsatishi muhim hisoblanadi. O'quvchilarni tarbiyalash jarayonida uddasidan chiqqa olmaydigan sohasi, hal qila olmaydigan muammosi bo'lmasligi kerak. Boshlang'ich sinf rahbari maktabdagi eng yetuk pedagog hisoblanib, u bajaradigan mehnatining chegarasi, o'lchovi

yo‘q. Boshlang‘ich sinf rahbari yuksak kommunikativ qobiliyatga ega bo‘lishi lozim, tarbiya jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar, ro‘y berayotgan hodisa va voqealarni faqat pedagogik qoidalarga bog‘lab hal qilishi emas u o‘zining hayotiy tajribasini ham qo‘lay olishi kerak, mavjud holatning sababiga qarab hukm ham chiqarishni, ijodiy qobiliyatlarga ega bo‘lishi lozim. Bundan tashqari, u xolis shaxs bo‘lib, beg‘araz, faoliyat yuritadi. Boshlang‘ich sinf rahbari ota-onalar, o‘quvchilar va pedagoglarni o‘zaro bog‘lovchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi, ularning hamkorlikdagi harakatlarni bir markazga birlashtiradi, o‘zaro aloqalarning bir maqsad sari to‘g‘ri yo‘nalishiga ta’sir o‘tkazishni ta’minlay olishi lozim. Aynan shu vazifalarni bajarish boshlang‘ich sinf rahbarining tarbiyaviy ishlari samarasini oshirishga va uning muvaffaqiyat qozonishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi yuqori bo‘lgan sinflarda ham bolalarda ilmga bo‘lgan qiziqish va muhabbatni o‘stirishga, ta’lim sifatini oshirib borishga intilish kerak. Boshlang‘ich sinf rahbari o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini oshirishga, puxta bilim berishga, ularga hamisha g‘amxo‘rlik qilib borishga harakat qiladi.

Ba’zi umumta’lim muassasalarida yuqori o‘zlashtirishga erishish sababi sifatida maktabda ta’lim-tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, o‘quv didaktik vositalardan maqsadga muvofiq tarzda foydalanishga bog‘ligi ko‘p bora ta’kidlanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ta’lim olish jarayonida bolalarni matonatli, diqqatni jamlaydigan, mehnatsevarlik kabi sifatlarni tarbiyalab borishga yaqindan yordam beradi.

Boshlang‘ich sinf rahbari o‘qituvchilar bilan birgalikda o‘quvchilarni o‘qishga ongli munosabat, mehnatga jo‘shqin ruhda tarbiyalashga rag‘batlantirib boradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning o‘zlashtirishlarini nazorat qiladi, kuzatadi, tahlil qiladi va o‘z sinfidagi o‘quvchilar bilan birgalikda sinfda o‘quv ishlarining sifatini oshirish chora-tadbirlarini amalga oshiradi, sinf majlisida bu borada tegishli qarorlar qabul qiladi. Boshlang‘ich maktabda olib boriladigan tarbiyaviy ishlar tizimi to‘g‘ri tashkil etilsa, bu bevosita sinfdagi ta’lim-

tarbiya jarayoniga, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Boshlang'ich sinf rahbari o'quvchilarni ruhlantira olishi, ularda mehnatga, hayotga muhabbatni shakllantirishi, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tarbiyaviy ishlarining o'zagini tashkil etmogi lozim. Ushbu dolzarb vazifalarni samarali hal qilishda quydagilarga rioya etishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Bilim olishga va har narsani bilishga qiziqishni tarbiyalashga, hamma narsada ijodkorlik xususiyatlarini shakllantirishga rag'batlantirib borish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qishga intilmay turib, bilimga qiziqmay turib yuqori natijalarni qo'lga kirita olmaydi. Dastlabki bosqichda qiyinchilik bilan o'zlashtirilgan fanlariga nisbatan bolaning qiziqishini uyg'otish kerak va o'quvchining bu faoliyatini qo'llab-quvvatlash kerak. Boladagi mehnatga nisbatan havas, o'qish va hayotga bo'lgan qiziqishi o'qishidagi qiyinchiliklarni yengishga, bilim faoliyatini rivojlantirishga mustaqilligi va qiziquvchanligini kamol toptirishga olib keladi.

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyati bilan bog'liq o'quvchi mehnatiga ongli munosabatni va o'ziga xos yondoshish hissini shakllantirish bilimning ongli, sifatli bo'lishi bolaning o'qishga bo'lgan intilishiga qiziqishiga olib keladi, o'quvchining mustaqilligiga, tashabbuskorligiga bog'liq bo'ladi. Mana shunday sifatlarni boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllantirish ularga o'quv mehnatining ijodiy ahamiyati amaliy asoslab berish, boshlang'ich sinf darslariga mas'uliyat bilan yondoshish o'quvchilardan talab etish sinf rahbarining faoliyatida e'tibor qaratishi kerak bo'lgan masalalardan hisoblanadi. Boshlang'ich sinf rahbari o'quvchilarni ijtimoiy foydali mehnat bilan bog'lanishi orqalivatanni himoya qilish, o'qish va hayot, mehnat faoliyati o'rtasidagi aloqani ko'rsatish vositasida o'quvchilarni hayotda uchraydigan turli muammoli vaziyatlarga tayyorlab boradi.

3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarni o'quv mehnatida o'rnatilgan tartib-qoidagi rioya qilishga o'ratish.

Boshlang'ich sinflarda o'quv mehnati bilim olish bilan dam olishni maqsadga muvofiq tarzda amalga oshirish kerak, sinf rahbarining ko'rsatmasi bilan rejalashtirilgan holda uy vazifalarini bajarishni tashkil etish ham ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarinima'lum rejimga rioya etishga o'rgatish sinf rahbari, o'qituvchi va ota-onalar hamkorlikda doimiy tarzda e'tibor qilishlari lozim. Shunday tartib bilan boshlang'ich sinf o'quvchilarida mas'uliyatlilik, qat'iyatlilik kabi xususiyatlar shakllanib asta-sekin rivojlanib boradi.

4. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim olish yo'lidagi kognitiv faoliyatini yo'lga qo'yish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'zlashtirishda nuqsoni bo'lgan ayrim o'quvchilar bilan individual asosda ishlanadi, o'quvchining o'quv faoliyati tizimlili va rejali olib borish o'quvchilar orasidan iqtidorli bolalarning yetishib chiqishiga asos bo'ladi.

Boshlang'ich sinf rahbarining va fan o'qituvchilarining asosiy vazifasi o'quvchining mustaqil ravishda tanqidiy fikrlashga o'rgatishdir. E'tiborli jihati shundaki o'quvchilarda bilim olish jarayonida uchraydigan qiyinchiliklarini yengib o'tishga o'rgatadi, ongli o'qish va kitob bilan mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda fanlardan beriladigan uy vazifalarini mustaqil bajarish orqali olgan bilimlarini amalda qo'llash kabi zarur bo'lgan sifatlarini shakllantirish katta ahamiyatga egadir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning aqliy va jismoniy taraqqiy etishga madaniyatli bo'lishiga erishish lozim.

5. Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilar o'rtoqlariga yordam berishni tashkil etish.

O'quv materialini hamkorlikda o'zlashtirish ta'lim jarayonida xususan boshlang'ich ta'lim jarayonida kafolatli natijaga olib keladi. O'quvchilar o'zaro yordam asosida sinfda bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarga hamjihatlik asosida yordam ko'rsatadi. Bu esa sinf o'quvchilari orasida o'zaro hamjihatlik, do'stlik bir jamoaga jipislashishga sabab bo'ladi.

Boshlang'ich sinf rahbarining asosiy ish faoliyati tarkibidagi sifatlardan eng muhimi bu sinfidagi o'quvchilarining tarbiyasini doimiy nazorat qilishda, o'zbek milliy va umuminsoniy qadriyatlarining nodir namunalaridan ma'lumotlar berib borish orqali har tomonlama rivojlanib ulg'ayotgan yosh avlodnima'naviy tarbiyalashning milliylik ruhi bilan uyg'unlashtirilgan holda olib bormog'imiz muhim ahamiyatga ega.

Birinchi Prezidenti Islom Karimov aytganlaridek, "Inson o'z umri davomida qanday yutuq va natijalarga erishmasin, qayerda, qanday lavozimda ishlamasin, maktab dargohida olgan ta'lim-tarbiyasi uning yetuk shaxs va malakali mutaxassis bo'lib shakllanishida ulkan ahamiyatga ega. Muxtasarqilib aytganda, barkamol avlod tarbiyasida maktab ta'limi va tarbiyasining tutgan o'rni beqiyosdir. Maktab ta'limida buyuk ajdodlarimiz ma'naviy merosidan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarini bilan tashkil etiladigan tarbiyaviy ishlarni, o'tkaziladigan ma'naviy- ma'rifiy tadbirlarning mazmunan takomillashishiga olib keladi. Biz boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy jihatdan tarbiyalashda rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalanib, jamiyat va davlat boshqaruvini demokratlashtirish, fuqarolar erkinlik va huquqlarini, g'oyalar serqirraligini o'z hayotimizga yanadakengroq tadbiriq qilishda ko'ramiz. Mana shu o'rinda, aytish joizki, yoshlarimizni ma'naviy jihatdan tarbiyalashda mavjud muammolar, tarbiyasidagi bo'shliqlar vujudga kelmasligi uchun ularning ongi vaqalbida sog'lom turmush tarzi, umummilliy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini yoshlik chog'laridan boshlab shakllantirishimiz kerak. Ayniqsa, boshlang'ich sinflardan boshlab murg'ak qalblarda axloq-odobga oidsodda tushunchalardan boshlab, sekin-astalik bilan milliy qadriyatlarimiz elementlarini singdirib borish katta ahamiyatga ega, ular ta'lim-tarbiya jarayonida o'zbekona ibratomuz urf-odatlarimizdan xabardor bo'lib boradilar. Insoniy fazilatlarni kichikhikoyalar, tanbehlar va rivoyatlar orqali anglab, axloqan tarbiyalanadilar. Salbiy xislatlardan o'zlarini saqlab, ota-bobolarimizdan meros qolgan udum va qadriyatlarni tiklashga, amalqilishga hissa qo'shishga intiladilar. Bu esa ularning milliy

mafkuramizning asl mohiyatini tushunishga olib keladi. Eng asosiysi bizning davlat demokratik tamoyillarga asoslangan holda, barcha mafkuralarning yashash huquqini ta'minlovchi institut sifatida ish ko'rishini tushunib yetadilar. Shu sababli ma'naviy qadriyatlarni ta'lim-tarbiya jarayoniga kiritib, yoshlarni axloqan pok va ruhan tetik, sog'lom aqlli qilib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalasidir. Bu masalalarni hal etish datarbiyasviy ishlarni natijaviyligini sifat jihatdan yangi bosqichiga ko'tarish asosiy vazifamiz hisoblanadi.

Mustaqil O'zbekistonning kelajagi har tomonlama barkamol intellektual salohiyatga ega bo'lgan yosh avlodni tarbiyalashga bog'liq. O'zbek xalqining ajdodlari bundan bir necha ming yillar oldin yashagan bo'lib, ular yuksak va o'ziga xos madaniyatni vujudga keltirishda juda katta va mashaqqatli yo'lni bosib o'tgan. Bugungi kunda buyuk allomalarimizning bizga qoldirilgan ma'naviy merosida yoshlar tarbiyasi borasidagi bildirilgan g'oyalar, bizgacha yetib kelgan fikrlar davlat siyosati darajasida ustuvor vazifa etib berildi.

Bu borada birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov o'z asarlarida, ma'ruzalarida yoshlarni ma'naviy tarbiyalash borasida juda ko'p fikrlar bildirgan. Xususan yoshlar tarbiyasida borasida fikr yuritib shunday deb ta'kidlaydi- "Xalqimiz tayanchi-ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy merosning o'zi bir xazina. Bu xazinadan oqilona foydalanishimiz lozim". Zero ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan asarlarda xalqimizga xos bo'lgan insonning axloqiy ruhiy kamolot masalasi yetakchi o'rin tutadi.

Insoniyat yaratgan ma'naviy boyliklar bisotida donishmandlarning pand-nasihatlari va o'gitlari, tarbiya haqidagi fikrlari alohida o'rin egallaydi. Donishmandlarning pand-nasihatlari umrboqiy ma'naviy boylik hisoblanadi. Chunki ular hayotdan, hayot tajribalaridan kelib chiqqan va ezgu orzu-niyatni ifodalaydi. Shuni ta'kidlash lozimki, eng qadimgi tarbiya haqidagi fikrlar bizgacha bevosita yetib kelmagan. Bu fikrlar insonning shakllanishida moddiy va ma'naviy madaniyatning yillar davomida rivojlanishi natijasidan dalolat beradi. Shuning uchun ham har bir davrda yashab ijod etgan mutafakkir allomalarimiz "tarbiya" so'zini

turlicha izohlaganlar. Tarbiya-arabcha soʻzdan olingan boʻlib, parvarish qilmoq, taʼlim bermoq, oʻrganish, odob oʻrgatish, mehribonlik koʻrsatish, himoya qilish singari maʼnolarni anglatadi. Bu oʻrinda tarbiyaviy manba sifatida Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi boʻlmish “Avesto” katta ahamiyatga ega. “Avesto”da insonning barkamol boʻlib yetishishida uning soʻzi, fikri, ishi birligiga katta eʼtibor berilgan. Bu axloqiy uchlik eng qadimgi davrlardan boshlab, undan keyin yaratilgan barcha maʼrifiy asarlarga asos boʻlgan, desak, xato qilmagan boʻlamiz. Mana shunga asosan, “Avesto”ning eng asosiy manbasi boʻlgan Zardushtiylik toʻgʻrisida soʻzborganda u toʻgʻrilik bilan yashash va axloqiy unsurlarga asoslanganligini taʼkidlash lozim. Ayniqsa, “Avesto”da inson tarbiyasiga, insonlarning jamiyatda tutgan oʻrniga munosabati toʻliq yoritilgan. Zardusht taʼlimotida tarbiya haqida quyidagicha fikr bildirilgan.

“Tarbiya-hayotning eng muhim tiringi (tayanchi) boʻlib hisoblanishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, u, avvalo, yaxshi oʻqishni va soʻngra esa yozishni oʻrganishi bilan eng yuksak pogʻonaga koʻtarilsin va yana yaxshi ovqatlanadigan xalqdan yaxshi nasl-sogʻlom avlod qoladi”, deb taʼkidlanadi. Tarbiya ijtimoiy hodisa. Tarbiya kishilik jamiyatining paydo boʻlishi bilan vujudga keldi, taraqqiy etdi, jamiyatning oʻzgarishi bilan tarbiya ham oʻzgarib bordi. Tarbiya xulqni boshqarish va belgilash, bir-birini talab etadigan va belgilaydigan tarkibiy qismlar-axloqiy ong, axloqiy faoliyat va axloqiy munosabatlarning murakkab yigʻindisidir.

Tarbiya jarayonida shaxsni maqsadga muvofiq har tomonlama rivojlantirish uchun tashkil qilingan uzluksiz pedagogik jarayon hisoblanib, aniq maqsad asosida tarbiyalanuvchilar shaxsiga muntazam tarzda taʼsir etish imkoniyatini beradi. Tarbiyachi yoki boshlangʻich sinf rahbari oʻquvchilarni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashni maqsad qilmogʻi lozim. Shu oʻqinda tarbiya oʻzi qanday jarayon uni samarali tashkil etish omillari nimadan iborat ekanligini tahlil qilib oʻtsak. Asosiy pedagogik adabiyotlarda tarbiya deb tarbiyachi tarbiyalanuvchi shaxsiyatida aniq maqsadni koʻzlab ijobiy sifatlar va fazilatlarni tizimli ravishda shakllantirish jarayoniga aytiladi. Tarbiya murakkab jarayon

bo‘lib uinson umri davomida tizimli ravishda amalga oshiriladi va tarbiya jarayoni bu davrda bir qator ijobiy va salbiy omillar ta’sirida yanada sayqallashadi. Tarbiya-biror maqsadga qaratilgan jarayon, u doimo muayyan rejaga ega bo‘ladi va buning uchun maxsus vakolati mavjud bo‘lgan kishilar tomonidan amalga oshiriladi.

Yoshlar tarbiyasi barcha davrlarda ham muhim ahamiyat kasb etgan. Tarbiyachilar yoshlarning odobi va axloqi, vijdoni va iymoni, saviyasi, malakasi, xatti-harakati, yo‘nalishi, tarixiy tajribasi, davr talablari va ehtiyojlari, istiqlol vazifalari bilan uyg‘unlashtirib shakllantirishga, rivojlantirishga harakat qilganlar. O‘z oldiga inson kuchi, bilimi va irodasi bilan bajarilishi mumkin bo‘lgan muayyan maqsadlarni qo‘ygan davlatlar ham ta’lim-tarbiya ishlariga befarq qaramagan. O‘rta Osiyo mutafakkirlarining tarbiya haqidagi fikrlari, o‘g‘itlari shunday kuchga egaki, ularyoshlar qalbida insoniylik urug‘larining unishiga, katta hayotyog‘liga olib chiqishiga yordam beradi. Shu bois biz uchun qadrlibo‘lgan allomalarimizdan Bahovuddin Naqshband, Abu Nasr Farobiy, Yusuf Xos Xojib, Kaykovus, Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyom, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Devoniy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Asqar Zunnunov va boshqalarning ta’lim-tarbiya va ma’rifat haqidagi g‘oyalaridan keng foydalanish bugungi kun talabiga javob bera oladigan yoshlarni tarbiyalashda muhim omil bo‘lib hisoblanadi.

Buyuk ajdodlarimizdan biri, tasavvuf ilmi sohibi Bahovuddin Naqshbandiy yoshlar tarbiyasi haqida fikrlari, pand-u nasihatlari g‘oyat muhimdir. Naqshbandiy barkamol inson tarbiyasi haqida fikr yuritib shunday deydi: “Adabsaqlash-muhabbat samarasi, yana muhabbat daraxtining urug‘i hamdir. Adab xulqni chiroyli qilish, so‘z vafe’lni soz qilishdir... Agar adabdan ozgina nuqsonga yo‘l qo‘ysangiz ham, nimaiki qilsang ham beadablik ko‘rinadi. Odam o‘zini bir xil sifat va ko‘rinishda olib yurishi lozimki, tokiodamlarda unga tasarruf (ta’sir qilish) ta’masi paydo bo‘lmasin”. Abu Nasr Farobiy ham o‘z ilmiy merosida yoshlar tarbiyasida ta’lim va tarbiya berish nuhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlab “Ta’lim so‘z, amaliy ish va o‘rganish bilangina amalga oshadi. Tarbiya

esa, ish-tajriba, amaliyot bilan, ya'ni shu yo'lorqali amalga oshiriladi"- degan fikrlarini bildirib o'tgan.

Abu Nasr Farobiyning fikricha, har bir shaxs munosibodam bo'lishi uchun unga ta'lim va tarbiya zarurdir. U ta'limorqali nazariy kamolotga erishadi. Tarbiya orqali esa kishilar bilanmuloqotni, axloqiy qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni o'rganadi.

Farobiy bolalarning fe'l-atvoriga qarab tarbiya jarayonida "qattiq" yoki "yumshoq" usullardan foydalanish kerak, debhisoblaydi:

1. Tarbiya jarayoni amalga oshirilayotganda tarbiyalanuvchilar o'qish-o'rganishga moyilligini namoyon etsa, ustoz-murabbiy ta'lim-tarbiya jarayonida yumshoq usulni qo'llaydi.

2. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilar itoatsiz, o'zboshimcha bo'lsa, qattiq tarbiya usul qo'llanilishi lozim.

Yusuf Xos Hojib tarbiyani juda murakkab jarayon deb tushunadi. U tarbiya kishini ezgulikka o'rgatmog'i kerak.

Ezgulikning har ishi chiroyli, har bir qadami go'zal. Ezgulik aslo qarimaydi. Tarbiya beldan madorni, tandan quvvatni, ko'zdan nurni, dildan oromni talab qiladi, degan fikrni bildiradi.

Kaykovus bola tarbiyasida talabchanlik bilan mehribonliknibirga olib borishni ta'kidlaydi: "Yosh bola ilm bilan adabni tayoq bilan o'rganur, o'z ixtiyori bilan o'rganmas. Ammo farzand beadab bo'lsa va sening ul sababdan qahring kelsa, o'z qo'lingbilan urmagil, muallimlarning tayog'i bilan qo'rqitgil. Bolalarga muallimlar adab bersinlar, toki sendan o'g'lingning ko'ngli qolmasin".

Abu Rayxon Beruniy inson va axloqiy tarbiya haqida fikr yuritar ekan, "Insonga yer yuzini obod etishi va uni boshqaribturishi uchun aql-zakovat ato etilgan. Shuning uchun har birinson yuksak axloqli bo'lishi lozim", deydi.

Abu Ali ibn Sino bola tarbiyasi haqida fikr bildirar ekan, bola tarbiyasini unga ism qo'yishdan boshlashni lozim deb topadi. "Bolaga munosib ism tanlash ota-onaning dastlabki oliyjanobvazifasi, bola tarbiyasi bilan avvalo ota-ona shug'ullanishi kerak", deydi.

Umar Xayyomning ta'kidlashicha, tarbiyaning maqsadi "sog'lom fikr, ziyrak aql va o'tkir zehnga ega bo'lgan insonni shakllantirishdan iborat bo'lmog'i kerak". Faqat chuqur zehngina barkamol xalqni qondira oladigan ilhomga erishishi va uning yordami bilan yuksak aql-idrok, farog'atni hosil qilish mumkin, lekin shuning o'zi kifoya qilmaydi, inson yuksak axloqqa ega bo'lishi, yaqinlarini sevishi lozim. Alisher Navoiy bola tarbiyasi bilan oila hamda maktabda shug'ullanish, shuningdek, bola tarbiyasini olib borish jarayonida namuna uslubidan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligiga alohida urg'u beradi.

Tarbiya va ta'lim ishlari o'qituvchi hamda ota-onalar tomonidan olib borilishi lozim. Mutafakkir bolalar bilan munosabatda bo'lish chog'ida ular tomonidan yo'l qo'yilgan xatoliklarni bartaraf etishda ularga jismoniy jazo berishdan saqlanish, aksincha, hushmuomalalik bilan yo'l qo'yilgan xatolarning mohiyatini ularga tushuntirish zarurligini, biroq buo'rinda ma'lum me'yorga amal qilish zarurligini aytadi.

Alisher Navoiy o'qituvchining, ayniqsa, talabchan bo'lishi bolalarning puxta bilim olishlari va ularda axloqiy sifatlarning shakllanishida muhim ahamiyatga ega, deb hisoblaydi. Alloma ma'lum fanasoslari yoki muayyan kasb-hunar sirlarini o'rganishga layoqatli, iste'dodli bolalarni tarbiyalashga alohida ahamiyat berish jamiyat uchun katta foyda keltiradi, qobiliyatsizni tarbiyalashga urinish befoydadir, degan xulosaga keladi va bu o'rinda quyidagilarni bayon etadi: "Qobiliyatlini tarbiya qilmaslik zulmdir, qobiliyatsizga tarbiya-xayf. Qobiliyatlini tarbiya qilmaslik bilan uninobud qilma", degan fikrni bildiradi.

Abdurahmon Jomiy, avvalo, tarbiya haqida fikr yuritarkan, har bir narsani ham parvarish etsa, undan yaxshi natijachiqishini, insonni ham yaxshi tarbiya etsa, u barkamol bo'lishini alohida ta'kidlaydi.

Jaloliddin Devoniy "Bolaning tarbiya olishi, odob-axloqli bo'lishi uning keyingi tarbiyasiga bog'liq. Chunki hayotda harkuni bola ko'radigan, muloqotda bo'ladigan narsalar uning xulqiga yaxshi va yomon tomondan ta'sir etadi. Bolada har kuni insoniy xislatlar: yurish-turish qoidalari, xushmuomalalik, ota-ona va boshqa katta yoshlilarni

hurmat qilish, to'g'rilik va rostgo'ylikni o'rganish, shirinsuxanlik, kamtarlik, so'zlashuv odobiga rioya qilish kundalik turmushda o'rganiladi", deb ta'kidlaydi.

Mutafakkir ajdodlarimizdan biri Mahmudxo'ja Behbudiy o'z qarashlarida ta'lim-tarbiya ishini tashkil etish va amalga oshirishni zamonaviylashtirishni ijtimoiy hayot bilan bog'liq holda olib borishni va ta'lim-tarbiya ishida, jahonda sodir bo'layotgan voqealar bilan bog'lab amaliyotga tadbiiq etishni o'z qarashlarida namoyon etgan. Behbudiy yoshlarni tarbiyalashda ota-onalarning o'rnini alohida ekanligini ta'kidlaydi, tarbiya jarayonida maktab va oila hamkorligini alohida urg'ulaydi.

Munavvarqori bolalar tarbiyasida faqat ota-onalar emas, maktab ta'limining ahamiyatini xususan muallim va jamoatchilik ham javobgar ekanligini ta'kidlaydi, ulardanbola tarbiyasini mohirona tashkil talab qiladi. Munavvarqori yoshlarni bilimlarni ongli egallashni, ilm egallash yo'lida mehnat qilishni, umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatli bo'lishga chorlaydi, ota-onalarni farzandlarida ma'naviyat, nafosat, go'zallik tuyg'ularini rivojlantirishga da'vatqiladi. Munavvarqorining fikricha, yosh avlodni tarbiyasi millatni uyg'otish vositasi, Vatan hurligi, xalqni ma'naviy jihatdan yuksaltirish orqali jamiyat hayotini rivojlantirish mumkin deb hisoblaydi. Yoshlar tarbiyasi, millat ma'naviyati haqida qayg'urgan ma'rifat darg'alaridan biri Abdulla Avloniy bo'lib uning fikricha, odob-axloq bu xulqning yig'indisidir. Inson xulq kishida o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi. Xulqning shakllanishi uchun yaxshi muhit, e'tibor va tarbiya kerak. Inson tug'ilishida yomon xulq bilan dunyoga kelmaydi, ularni shakllangan salbiy sharoit yomon xulqli bo'lishgaolib keladi. AbdullaAvloniyning fikricha, yaxshi axloq tarbiyasi xususiyish emas, balki tarbiya ijtimoiy ish hisoblanadi. Har bir xalqning rivojlanish, mamlakatning taraqqiy etishi yosh avlod tarbiyasi bilan chambarchas bog'liq.

Abduqodir Shakuriy fikricha, maktab bolalarni ilimli, odobliqilib tarbiyalashi va hunarga o'rgatishi kerak, maktabda dunyoviyfanlar o'qitilishi lozim. Intellektualrivojlanishda bolalar xarakteri va jamiyatdagi

ijtimoiy muhittartib-qoidalarini va ularning o'zaro bog'liqligini tushunishi lozim. Shundagina bolalar jamiyat va xalq farovonligi uchun xizmat qiladigan bo'lib yetishadilar.

Pedagog olim Asqar Zunnunovning fikricha, tarbiyada bilim va tajribagaega bo'lgan, milliy qadriyatlardan xabardor o'qituvchi bolalarnibilimli, go'zal xulqli qilib yetishtirishi shubhasizdir. Ammo ularning bolalarga beradigan tarbiyasi tarbiyaning asosiy zaminibo'lgan oila, tarbiya ilmidan xabardor ota-ona, ayniqsa, iffat, sharm-hayo, or-nomus, sabr durdonalaridan ziynatlangan, baxt-saodat mujassam bo'lgan ona tarbiyasi darajasida bo'lmaydi[34].

Jamiyatimizda barkamol inson tarbiyasi davlat siyosati darajasidagi masala bo'lib hisoblanadi. Barkamol inson deganda yuksakongli, ma'naviy yetuk, mustaqil fikrli, shaxsiy na'muna bo'la oladigan ma'rifatli, bilimli kshilarni tushunamiz.

Tarbiya-vijdon ishi, ta'lim esa fanning vazifasi. Keyinchalik, inson voyagayetgach, bilimning bu ikki turi biri-birini to'ldiradi. Tarbiyaga jamiyat a'zolari o'rtasida qaror topgan munosabatlarni saqlab turish uchun juda zarur bo'lgan bilimlarni uzluksiz egallash, deb qarash mumkin. Tarbiya ishida har birkishining individual qobiliyatini rivojlantirish haqida g'amxo'rlikqilish bilan, ayni chog'da, ularda atrofdegilarga nisbatan mas'uliyat hissini tarbiyalashga ham e'tibor bermoq zarur.³

Tarbiya o'sib kelayotgan avlodda hosil qilingan bilimlar asosida aqliy kamolot-dunyoqarashni, insoniy e'tiqod, burch va mas'uliyatni, jamiyatimiz kishilariga xos bo'lgan axloqiy fazilatlarni yaratishdagi maqsadni ifodalaydi.

³R.Mavlonova, N.Voxidova, N.Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. -T.: "Fan texnologiya", 464 bet.

3-§. Boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarining sinf rahbari sifatidagi kompetentligini rivojlantirish modeli.

Boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilar har tamonlama rivojlanishi ta‘minlanadigan asosiy ta‘lim bosqichi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida boshlang‘ich ta‘lim 1-4-sinflarni tashkil etadi va o‘quvchilarga ta‘lim berish, jismoniy va ma‘naviy jihatdan tarbiyalash, analitik tafakurini o‘stirishning asosiy davridir.

Boshlang‘ich ta‘limning uzluksiz ta‘lim tizimida tutgan o‘rni ahamiyati haqida O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonunining 9-moddasida “Umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga to‘ladigan yilda qabul qilinadi. Boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilarda umumiy o‘rta ta‘limni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko‘nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan” [2.23]-deb ta‘kidlangan. Shundan kelib chiqqan holda XXI-asr ko‘nikmalarini xususan: o‘quvchilar egallagan ko‘nikmalarini kundalik turmushda, hayotiy vaziyatlarda qay tarzda qo‘llay olishi, tanqidiy fikrlash, kreativlik, samarali muloqotni tashkil etish, hamkorlikda ishlay olish, o‘quvchilarda qiziquvchanlikni, tashabbuskorlikni, maqsad sari intilish hissini, moslashuvchanlik, liderlik kabi xususiyatlarni boshlang‘ich ta‘lim mazmuniga singdirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Boshlang‘ich ta‘lim mazmunini - o‘quvchilarni haqqoniy, ilmiy dalillar, tushunchalar, qonuniyatlar, nazariyalar bilan tanishtirishga qaratilgan bilimlar tizimi ekanligini tushunamiz⁴. Boshlang‘ich ta‘lim mazmunida bolalarning tasavvurini va ijodiy tafakkurini o‘stirishga qaratilgan, muayyan maqsadga yo‘naltirilgan o‘quv materiallari ajratilishi lozim. Ta‘lim mazmunida o‘qish, yozish, hisoblash, tabiatga oid ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish bilan bir qatorda o‘quvchilarni kompleks rivojlantirishga asos bo‘ladigan tarbiya elementlari ham o‘z ifodasini topmog‘i lozim. Boshlang‘ich ta‘limda

³Pedagogik atamalar lug‘ati T.: 2019 –B 116.

o'quvchining olamni yaxlit idrok etishi va aniq maqsadga qaratilganligi ta'minlashi lozim. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarga jismoniy va nafosat me'yorlarini singdirish, ularning go'zallikka bo'lgan munosabatini va intilishini shakllantiradi. Bu esa milliy ongning rivojlantirishning asosiy omilidir.

Boshlang'ich ta'limda o'qitiladigan o'quv fanlarining tayanch mazmuni har bir fandan ishlab chiqiladigan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlarida belgilab beriladi.

Boshlang'ich ta'limning maqsadi: boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarlarga yozish, o'qish va elementar hisoblashga o'rgatish, tabiat bilan tevarak-atrof dastlabki ilmiy tanishtirish, mantiqiy va ijodiy fikrlash xususiyatlarini, shaxsiy gigiyena, xulq-atvor madaniyatini vasog'lom turmush tarzini shakllantirish hamda kichik maktab yoshidagi o'quvchining individual imkoniyatlarini yuzaga chiqarishdan iborat.

Boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalari:

- o'quv fanidan davlat ta'lim standarti asosida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan holda bilim, ko'nikma va malakalar shakllantirish va muntazam ravishda rivojlantirib borish;

- kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan holda har bir o'quv fanidan dasturda malaka talablarini egallashlari uchun pedagogik sharoit hozirlash;

- intellektual rivojlanganiqtidorli o'quvchilarni aniqlash va ularning faoliyatini rag'batlantirib borish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarini aqliy rivojlantirish, dunyoqarashini, ijodiy va mantiqiy fikrlashini, kommunikativ xususiyatlarini, o'qish savodxonligini rivojlantirish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarini moddiy borliqni idrok etishga, jismonan baquvvat bo'lishga, nafosatdan zavqlanish, milliy urf-odatlar asosida tarbiyalashdan iborat.

Bugungi kunda ta'limni rivojlantirish bo'yicha islohotlar boshlang'ich ta'limning samaradorligi va sifatini rivojlantirishni taqozo etmoqda. Shunga ko'ra, boshlang'ich ta'lim oldiga dolzarb muammolarni hal qilish vazifasi yuklatilmoqda. Ular:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarida bilim egallashga nisbattan kuchli motivatsiyani yuzaga keltirish, kognitiv faoliyatga nisbattan intilish hissini tarbiyalash;


- kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'rganish, o'qish, izlanish natijasida egallagan bilimlarni amaliyotga tadbiq etish bilan bog'liq amaliy ko'nikmalarni rivojlantirib borish,

Boshlang'ich ta'limni rivojlantirishda o'qituvchining kasbiy layoqatliligi va kompetentlik darajasi, zamonaviy boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va bu sohadagi pedagogik tajribalar, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari va boshlang'ich ta'lim samaradorligi va sifatini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Yuqoridagi vazifalar boshlang'ich sinf rahbari zimmasiga ham yuksak mas'uliyat yuklaydi. Sinf rahbari o'zining kasbiy kompetentligini doimiy nazorat qilishi va muntazam ravishda takomillashtirib borishi kerak.

Boshlang'ich sinf rahbari pedagogik jarayonni to'g'ri boshqara olishi uchun chuqur bilim va kasbiy kompetensiyaga ega bo'lishi lozim.

Sinf rahbarlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ta'lim muassasasida o'quv ishlarini tashkil etish va boshqarish yo'llarini o'z ichiga oladi va ular bo'yicha tegishli yangi nazariy bilim, amaliy ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltiriladi.


Sinf rahbari maktabning tarbiyaviy tizimidagi tayanch pedagoglaridan biri bo'lib, o'zi mas'ulligidagi boshlang'ich sinf o'quvchilarining belgilangan tartibda sifatli ta'limga ega bo'lishlari nazarda tutiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy tarbiyasini to'g'ri tashkil etishbolalar yetakchisi, maktab psixologi, ota-onalar, vasiylar shuningdek, maktab ma'muriyati voyaga yetmaganlarbo'yicha komissiyalar, huquq-tartibot idoralari, mahalla, homiylik va vasiylik komissiyalari, bolalar ijodiy uyushmalar o'zaro hamkorlikda ishni tashkil etadilar.



2.1.1-rasm. Malaka oshirish kurslarida boshlang'ich sinf rahbari sifatidagi kompetentligini rivojlantirish modeli

Boshlang'ich sinf rahbari ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni samarali tashkil etishi uchun kerakli bo'lgan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarining egallash va ularni amalda samarali qo'llay olinishiga erishish juda zarur hisoblanadi. Sinf rahbarining kasbiy layoqatliligini rivojlantirib borishi o'z ustida ishlash orqali bilim, ko'nikma va malakalarni egallanishi emas, kasbiy kompetentligini rivojlantirish bo'yicha integratsion bilimlar va amaliy faoliyatlarining o'zlashtirilishi muhim hisoblanadi. Shu bilan birgalikda, kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis o'z ustida ishlash orqali bilimlarini rivojlantirib boradi, yangi axborotlarni o'zlashtirib oladi va faoliyatida tadbiiq etib keladi, davr talablarini anglaydi, yangi ma'lumotlarni o'zlashtiradi va ulardan amalda adaptiv yo'nalishlarda faoliyatiga tadbiiq etadi.

Pedagoglarning kasbiy kompetensiyasi va uni muntazam ravishda rivojlantirib borish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan Markova Anastasiya Konstantinovna tadqiqotlarida pedagogning kasbiy layoqatliligi quyidagicha tasniflaydi:




2.1.2-rasm. Pedagogik kompetentlikning muhim tarkibiy qismlari (Markova)

Tadqiqotlardan ma'lumki boshlang'ich sinf rahbari kasbiy kompetentligini rivojlantirib borishi uchun quyidagi kompetentlik sifatlarini o'zida ko'rsata oladi:

1. Pedagogning ijtimoiy layoqatga egaligi – pedagogik faoliyatda yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarda o'zini ko'rsata olish ko'nikmasiga egalik, kasbiy faoliyatda kommunikativlikni namoyon eta olish.

2. Pedagogning kasbiy faoliyatdagi maxsus kompetentlikka egaligi – pedagogik faoliyatda namoyon bo‘ladi, kasbiy faoliyat bilan bog‘liq vaziyatlarda lozim bo‘ladigan, talab etiladigan layoqatga egalik bilan ifodalanadi. Pedagog o‘zining bilim, ko‘nikma va malakalarini doimiy rivojlantirib boradi, maxsus kompetentlik zamirida kreativ, psixologik, kommunikativ, informatsion, innovatsion va metodik kompetentlikning mavjudligi bilan izohlanadi. Ular o‘zida quyidagi mazmuni ifodalaydi:



Markova Anastasiya Konstantinovna hamda B.Nazarovalarning ilmiy tadqiqot ishlarida pedagogik kompetentlikning tarkibiy qismlari, mazmuni va pedagogik kompetentlikni rivojlantirib borishning metodlari, pedagogik shart-sharoitlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Sinf rahbarlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirib borishda ularning kasbiy rivojlanish shkalalarini o‘rganib borish va uning monitoringi asosida ma’lum xulosalarni chiqarish mumkin.

Kasbiy rivojlanish shkalasi

	Kasbiy kompetentlik sifatleri	Shkala ko'rsatkichlari									
		10	9	8	7	6	5	4	3	2	1
1. Ijtimoiy kompetentlik											
1	ijtimoiy tashkilotlar va sub'ektlar bilan o'zaro munosabatda bo'la olish loyoqatiga egalikni ifodalaydi										
2	pedagogik faoliyatdagi muloqot va xatti-harakat uslublarini o'zlashtira olganlik										
2. Shaxsiy kompetentlik											
1	o'zini- o'zi muntazam rivojlantirib boradiva faoliyatida mos kompetentlikni namoyon etadi										
2	pedagogik faoliyatda kasbiy layoqatini namoyon etadi, o'z tashabbuskorligi bilan ajralib turadi										
3. Maxsus kompetentlik											
1	pedagogik talablarga javob bera oladi, faoliyatini samarali tashkil eta oladi										
2	pedagogik faoliyat bilan bog'liq vazifalarning samarali yechimini topa oladi va faoliyatning natijalarini baholashlayoqatiga ega										
3	kasbiy jihatdan moslashuvchan, turli pedagogik vazifalarni hal qilishda boshqalarga o'rnak bo'la oladi										
4. Texnologik kompetentlik											
1	kasbiy-pedagogik malakalarni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish qobiliyatiga egalik										
2	zamonaviy didaktik vositalar (texnik vositalar, o'quv qurollari)dan foydalanish malakasiga egalik										

5. Ekstremal kompetentlik

1	favqulotda holatlarda (tabiiy ofatlar sodir bo'lganda, texnologik jarayon ishdan chiqqanda) oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik										
2	Kutilmagan muammoli vaziyatlarda (pedagogik ziddiyatlarda) o'zini tuta biladi, to'g'ri qaror qabul qilish malakasiga ega										

Boshlang'ich sinf rahbari o'zining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda o'z-ustida ishlashning o'rnini katta hisoblanadi.

O'z ustida ishlash orqali kasbiy layoqatini, kompetentligini rivojlantirib borish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- pedagogik faoliyatini bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirib boradi:

- pedagogik faoliyatida o'zini-o'zi rivojlantirish jihatidan ijodiy va tanqidiy jihatdan qayta ko'rib chiqadi va kamchiliklarni bartaraf etadi;

- maktab pedagogik jamoasi bilan kasbiy rivojlanish, tajriba orttirish nuqtai nazaridan samarali hamkorlikni o'rnatadi;

- faoliyatida doimo ishchanligini, tashabbuskorligini namoyon etadi va muntazam rivojlantirib boradi;

- faoliyatini tanqidiy jihatdan tahlil qiladi va o'zidagi salbiy odatlarni aniqlaydi, bartaraf etish choralarini ko'radi;

- ijobiy sifatlarni o'zlashtirish.

Boshlang'ich sinf rahbari kasbiy loyohalilikini yuqori cho'qqisiga chiqishda o'z-ustida ishlashning ahamiyati katta, u o'z ustida ishlash orqali kasbiy kompetentligini rivojlantira. Kasbiy kompetentligining qay darajada rivojlanganligini o'z-o'zini tahlil qilish orqali o'zini o'zi baholash jarayonida aniqlab nazorat qilib borish mumkin.

O'zini-o'zi tahlil qilish yetakchi tomonidan tashkil etilayotgan o'z amaliy harakatlari mohiyatini o'zlashtirishdir. Pedagog o'z-o'zi tahlil

qilishdaxolisona, adolatli baholay olsa, pedagogning kasbiy kompetentligi kafolatlangan natijaviy ko‘rinishga ega bo‘ladi.

Pedagog o‘z faoliyatini to‘g‘ri baholayolishida o‘zining qobiliyatini, layoqatini yuzaga chiqarishga yordamlashishi kerak. Har bir mutaxassisda bo‘lgani singari pedagogning ham o‘zini o‘zi baholay olishiga bir qator omillar ta‘sir ko‘rsatadi.

Pedagogning o‘zini o‘zi samarali baholashiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarini quyidagicha izohlash mumkin:

1. O‘zi haqida aniq, real ma‘lumotlarga ega bo‘lish, o‘zini tushunish;
2. o‘zining yutuqlarini e‘tirof etish, ijobiy xislatlarini rivojlantirib borish, o‘z qadr-qimmatini anglash;
3. O‘zi haqidagi fikrlarini atrofdagilar fikri bilan solishtirish, tafovutlarni aniqlash, o‘zini-o‘zi nazorat qilish;

Pedagogning o‘z-o‘zini samarali baholash darajasini aniqlash shaxsning o‘zidan qoniqmasligi yoki qoniqishini belgilaydi.

Pedagogik manbalarda ko‘rsatilishicha shaxsning o‘z-o‘zini baholashi quyidagi formulaga ko‘ra aniqlash tavsiya etiladi:

$$\text{O‘O‘B} = \text{yutuqlar} / \text{o‘zini yuqori baholashga intilish (yoki O‘O‘B = YU / O‘YUBI)}$$

Pedagog mazkurformula asosida biror bir yutuqqa erishgach, o‘zini yuqori baholash yoki o‘ziga nisbatan qo‘yayotgan talablarni meyorlashtirishga olib keladi.

Bizning fikrimizcha, O‘O‘Bda xolislikka erishishda quyidagi formula ham qo‘l keladi:

$$\text{O‘O‘B} = \text{yutuqlar} / \text{o‘z-o‘zini rivojlantirish vazifalari (yoki O‘O‘B = YU / O‘O‘RV)}$$

Pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan tadqiqotchilar B.Nazarova va Markova Anastasiya Konstantinovnalarning pedagogikning kasbiylayoqatining tarkibiy jihatlarini asoslab bergan.

O'qituvchi kasbiy layoqatni egallashi uchun o'zini muntazam takomillashtirib borish kerak. O'qituvchining kasbiy layoqati tarbiyaviy va ta'limiy jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etishga olib keladi.

Mamlakatimizda jamiyat hayotining ma'naviy-ma'rifiy asoslarini mustahkamlash, milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini hayotga joriy etish, yurtdoshlarimiz, ayniqsa, o'quvchilar qalbida vatanparvarlik va mas'uliyatlilik, g'oyaviy hurujlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllanadi.

Mazkur ishlarning asosiy targ'ibotchisi maktab va maktablarda faoliyat yurutayotgan sinf rahbarlari hisoblanadi.

Sinf rahbari faoliyatining o'zgarimas komponenti quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1) *o'quvchilarning sog'lig'i haqida qayg'urish* – boshlang'ich sinf o'quvchilarining sog'lig'ini muntazam nazorat qilib borish, o'quvchilar sog'lig'i haqida maktab shifokori bilan hamkorlikda ish olib borish, yosh ota-onalarga tibbiy va pedagogik maslahatlar berish.

2) *o'quvchilar va o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi ijobiy shaxslararo munosabatlarni ta'minlash* – sinf rahbari ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilararo munosabatlar diagnostikasini olib borish, sinfdagi psixologik iqlimni optimallashtirish vazifalarini aniqlash, muammolari bo'lgan o'quvchilarni aniqlash va ulara pedagogik – metodik tavsiyalar berib borish, mavjud muammolarni hal qilish uchun sinf rahbari o'quvchilar va ularning ota-onalari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatadi.

3) *boshlang'ich sinf o'quvchilarida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash* – o'quvchilarni vatanparvarlik va ijtimoiy emotsional fuqarolik pozitsiyasida tarbiyalash, o'quvchilarni huquqiy savodxonligini oshirish, yillik tarbiyaviy ishlar rejasini ishlab chiqishda boshlang'ich sinf o'quvchilarida vatanparvarlikni shakllantiruvchi mavzularda tadbirlarni rejalashtirish, sinfdagi ishlarning dastlabki holatiga asoslangan o'quvchilarning o'zini o'zi boshqarish tizimini tizimli rivojlantirish, sinf rahbari va o'quvchilarning o'zaro munosabatlarida shartnoma tamoyillarini amalga oshirish.

Sinf rahbari faoliyatining o‘zgaruvchan komponenti:

1) *sinf bilan o‘quv ishlarini dasturlash* – sinf o‘quvchilarini tarbiyalash, o‘qitish va rivojlantirishning holatini, muammolarini va istiqbollarini aniqlashni har tomonlama o‘rganish:

- yuqori sifatli va oqilona maqsad qo‘yish, sinf bilan ishlashni dasturlash va rejalashtirish;

- hisobot hujjatlarini yuritish;

- samaradorligini monitoring qilish;

- o‘z faoliyati;

- o‘quvchilarning profilga muvofiq shahar, tuman va viloyat miqyosidagi musobaqalar va tanlovlarda ishtirokini tashkil etish - sinfnings tizimli faoliyati);

2) *tarbiyasi og‘ir o‘quvchilar bilan profilaktika ishlarini olib borish* – intizomsiz, tarbiyasida kamchiligi bor, o‘qituvchi kuzatuvda bo‘lgan o‘quvchilarni aniqlash:

- tarbiyasida kamchiligi bor, o‘qituvchi nazoratida bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlashda maktab psixologi, ijtimoiy pedagog, ota-onalar qo‘mitasi, ta’lim muassasalari ma’muriyati bilan hamkorlikda profilaktik ishlarni tizimli olib borish;

- mahalla va boshqa ijtimoiy institutlar hamkorligida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, ota-onalar uchun mo‘ljallangan profilaktika tadbirlarini tashkil etish.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining sinf rahbari sifatidagi kompetentligining rivojlanganlik darajasini baholashning asosan uchta darajasini tahlil qilishimiz mumkin:

Kasbiy-ma’naviy faoliyat darajasi – sinf rahbari faoliyatiga qo‘yilgan ta’lablarni chuqur anglaydi. Sinf rahbarlik nuqtai nazaridan kasbiy kompetentligini rivojlantirish yuzasidan nazariy bilimlarga ega. Ma’naviy-ma’rifiy faoliyatini tashkil eta oladi.

Kasbiy, ma’naviy-ma’rifiy yetuklik – o‘zining kasbiy lavozim majburiyatlarini biladi va vijdonan bajaradi. Jamoada yangi tashabbuslarni ilgari suradi, o‘zini namoyon eta oladi, boshqalardan

ajralib turadi, na'muna bo'la oladi, ilg'or tajribalarni egallab o'z faoliyatiga tadbiiq etish orqali kasbiy yetuklikka erishadi.

Yuqoridarajadagi kasbiy kompetenlilik darajasini namoyon etish – kasbiy layoqatli, o'z ustida ishlash orqali kasbiy kompetentlikka erisha oladi, o'zida tashabbuskorlik va liderlikni ko'rsata oladi. O'quvchilar jamoasini shakllantira oladi, jipslashtiradi va yuksak natijalarga erishadi. Sinf rahbarlarining kasbiy siklogrammasida yuqori natijalar qayd etadi.

Sinf rahbarining kasbiy kompetenliligini rivojlantirish siklogrammasini

Sinf rahbari har kuni o'quvchilarni ta'lim-tarbiyasidan tortib, otionalari, do'stlari bilan o'zaro munosabati, darslardagi ishtirokiyu, o'zlashtirish darajasi bilan shug'ullanishi lozim. Ana shu vazifalardan kelib chiqib, uning kunlik, haftalik, oylik, choraklik hamda yillik takrorlanuvchi ishlar siklogrammasi mavjud. Sinf rahbari bajaradigan ishlari nuqtai nazaridan aniq maqsadlarni belgilab olish va o'quvchilar bilan tizimli tarbiyaviy ishlarni olib borishda chalg'imaydi. Sinf rahbari ishining siklogrammasi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Kundalik

Kechikkan o'quvchilar bilan ishlash va o'quvchilarning darsga kech qolishi sabablarini aniqlash. O'quvchilarning muvaffaqiyatini kuzatish. O'quvchilar uchun ovqatlanishni tashkil etish. Sinfda navbatchilikni tashkil etish. O'quvchilar bilan individual ishlash. Kundalik.com saytida ishlash.

Haftalik

Hafta davomida sinf rahbarining ish rejasida tadbirlar rejalashtirilgan bo'lsa o'z vaqtidan kechik tirmasdanamalga oshirish. Otionalar vafan o'qituvchilari bilan hamkorlik ishlarni amalga oshirish. Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlash. O'quvchilarning o'zlashtirishini nazorat qilish.

Oylik

O‘z sinfining darslarini kuzatish. Ota-onalar faollari bilan uchrashish. Faoliyatni rejalashtirish va tashkil qilish bo‘yicha yig‘ilish (maktab grafigi asosida). Maktabda navbatchilikni tashkil qilish

Chorakda bir marta

Chorak natijalari bo‘yicha kundalik.com saytida o‘quvchilar o‘zlashtirishini tegishli tartibda rasmiylashtirish. Sinf rahbarlarining o‘quv seminarida qatnashish. Choraklik rejaning bajarilishini tahlil qilish hamda keyingi chorak uchun reja tuzish. Ota-onalar yig‘ilishini o‘tkazish.

Yilda bir marta

Ochiq tadbir o‘tkazish (maktab rejasi asosida). O‘quvchilarning shaxsiy varaqalarini to‘ldirish. O‘tgan o‘quv yilida bajarilgan ishlar tahlili hamda sinfning yangi o‘quv yiliga ish rejasini tuzish. Sinfdagi o‘quvchilar soni haqida ma’lumot (1-sentabrgacha)

Sinf rahbari yuqori kasbiy rivojlantirishga erishishidakasbiy kompetentligini tizimli ravishda rivojlantirib borish orqali erishishi mumkin.

4-§. Malaka oshirish jarayonida boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining sinf rahbari sifatidagi faoliyati mazmunini yangilashning ilmiy-metodik imkoniyatlari.

Zamonaviy raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlash uzluksiz ta’lim tizimi oldida turgan ustuvor, dolzarb vazifalardan biridir.

Pedagoglarni kasbiy kompetentligini rivojlantirishni malaka oshirish bilan bog‘lab o‘rgangan ko‘pgina pedagog olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida pedagog xodimlar malakasini oshirish masalalari atroflicha tahlil qilingan.

Yo‘ldoshev M.A. malaka oshirish tizimini rivojlantirishda boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish, ta’lim sifatini boshqarish zamon talablari darajasida tashkil etish haqida quyidagi fikrlarni bildiradi. Malaka oshirish ta’limi sifatini boshqarishda: tashqa nazorat tadbirlarini ichki nazorat va o‘z-o‘zini baholash natijalaridan foydalanish bilan almashtirish imkoniyatini yaratish, jamoatchilik nazoratiga ochiqligini

ta'minlash; xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish tizimida ta'limi sifatiga qo'yiladigan davlat talablarini ularning kasbiy faoliyat xususiyatlarini e'tiborga olgan holda ishlab chiqish; pedagoglarning ehtiyojlarini o'rganish asosida ta'limni rivojlantirish strategiyasining barqaror taraqqiyot, uzluksiz ta'lim, bilimlarning globallashuv konsepsiyalarini e'tiborga olgan holda sifat muammolarini kompleks hal qilish; malaka oshirish ta'lim muassasasida sifatning yapli menejmenti konsepsiyasiga asoslangan sifat menejmenti tizimini joriy etishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi [49. 30-31 bb.].

Noulz M.Sh. uzluksiz malaka oshirish jarayoni katta yoshlilar bilan ishlashni nazarda tutar ekan, ularning ehtiyojlari va hayotiy tajribalariga mos holda tashkil etilishi lozim, degan g'oyani ilgari suradi. Uningcha, kattalar ta'limi muammoli yo'naltirilishi, shaxsiy tajribaga tayanishi, o'qitish natijasida olingan tajriba oluvchi uchun ahamiyatliligi, o'qitish maqsadi ularning ishtirokida shakllantirilishi hamda erishilgan natijalar yuzasidan qayta aloqaga ega bo'lishi kabi omillarga jarayonning asosiy tashkil etuvchilari sifatida jiddiy e'tibor qaratish zarur [28. 189 bb.]

Shodiyev N. pedagoglar malakasini oshirish uzluksizligini ta'minlash uchun kusrlardagi tayyorgarlik, metodik ishlar va mustaqil ta'limni o'zaro aloqadorlikda tashkil etish lozimligini o'qitiradi [41. 222-224 bb. 223 b.].

Choriyev R.Q. o'zining tadqiqotlarining asosiy omili sifatda pedagoglarning uzluksiz bilim olishlari hamda kasbiy rivojlantirish orqali pedagogik vazifalarni mustaqil yechish uchun pedagogik tahliliy-refleksiv, tashkiliy-faoliyatli, tuzatishlar kirituvchilik, boshqaruvchanlik, baholovchi-axborotli hamda loyihalash va bashorat qilish layoqatiga ega bo'lishi lozim. Mazkur masalaning samarali yechilishi natijasida o'qituvchining umumiy madaniyati, aql-zakovati, bilimdonligi, o'ziga xosligi, o'z tajribasiga nisbatan ijobiy munosabati va boshqalarning tajribalarini o'zlashtirish mahorati ortadi [16. 22-25. 24-25bb.].

Xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish va ularni kasbiy jihatdan rivojlantirish sohasida tadqiqotlar olib borgan tadqiqotchi A.Ibragimovning "Xalq ta'limi xodimlarini malakasini oshirish tizimini

modernizatsiyalash parametrlari” nomli monografiyasi[20]da malaka oshirish tizimini modernizatsiyalash parametrlari, xususan, sohani ko‘p vektorli yondashuv asosida takomillashtirish, tizimning barcha resurslaridan optimal foydalanish, tinglovchilarning kasbiy ehtiyojlari, individual xususiyatlari, imkoniyatlarini inobatga olgan holda malaka oshirishning turli shakllarini erkin tanlashi, o‘z-o‘zini rivojlantirishi va mustaqil bilim olishini rag‘batlantirishga qulay sharoilar yaratish texnologiyalari haqida fikr yuritilgan. Unda pedagogning kasbiy rivojlanishida ilmiy-metodik kuzatuvning didaktiv imkoniyatlari, ta’lim subyektlari hamkorligini uyushtirish, malaka oshirish o‘quv mazmunini kasbiy ehtiyojlarga asoslangan modulli shakllantirishda invariant va variative tarkibni belgilash, malaka oshirish tizimida o‘qituvchining kasbiy malakasini rivojlantirish malaka oshirishni individuallashtirish (individual ta’lim trayektoriyasi, dasturi) individual ta’lim trayektoriyasini rejalashtirish, pedagogning malaka oshirish yo‘l xaritasini shakllantirish va uni amaliyotga joriy qilishga oid tadqiqot natijalari keng yoritilgan”- deb ta’kidlangan [20. 183 b.]

2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun[2]ning 13-moddasida qayta tayyorlash va malaka oshirish haqida so‘z yuritilib, “Kadrlarni qayta tayyorlash tayanch mutaxassisliklar va kasblarga muvofiq bo‘lgan yo‘nalishlar bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish uchun qo‘shimcha kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalarning zarur hajmi egallanishini ta’minlaydi.

Malaka oshirish o‘qituvchi va boshqa pedagog xodimlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga, pedagoglarning toifasini oshirishi, saviyasi, razryadi, tajribasiva lavozimi oshishini ta’minlaydi.

Pedagoglarningmalakasini oshirish va qayta tayyorlash ularning shakllari va muddatlari tegishli davlat ta’lim talablari bilan belgilanadi.”- deb ta’kidlangan [2.9].


Respublikamizda keying yillarda qabul qilingan bir qator hujjatlar pedagoglar malakasini oshirish sohasida samarali meyoriy-huquqiy bazani yaratish imkonini beradi.

Xalq ta'limi vazirining 2022-yil 17-yanvardagi "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risida"gi Nizom[12]qabul qilindi. Mazkur nizomda ham pedagog hodimlar malakasini oshirish va ularning, kasbiy kompetentligini rivojlantirib borishning turli shakllari mavjud. Uzluksiz kasbiy rivojlanish shakllari doirasida boshlang'ich sinf rahbarlarining ham kasbiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari keng ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Mazkur nizomning 5-bobi Uzluksiz kasbiy rivojlantirish shakllari deb nomlanib, unda uzluksiz malaka oshirishda malaka oshirishning quyidagi shakllaridan foydalanish ko'zda tutilgan:

- ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish;
- ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish;
- masofaviy ta'lim olish;
- dual ta'lim;
- mustaqil ta'lim;
- malaka oshirishning muqobil shakllari.

O'qituvchi va boshqa pedagog xodimlarning uzluksiz malaka oshirishi va qayta tayyorlash jarayonini samarali tashkil etilishi kerak. O'qituvchilar malakasini oshirishning asosiy maqsadi-ortib borayotgan kasbiy ehtiyojlarni aniqlash va qondirishda zamonaviy usullarini o'zlashtirishni taqozo etadi[12].



2.2.1-rasm. Malaka oshirish shakllari

Uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimida o'qituvchilar kasbiy kompetentligini rivojlantirishda keng didaktik imkoniyatlarga ega. Boshlang'ich sinf rahbari ham o'zining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish orqali ko'chma (xodimlarning yashash hududida) va stajirovka tarzida o'zining kasbiy kompetentligini takomillashtirishi mumkin. Boshlang'ich sinf rahbarining ma'naviy-ma'rifiy faoliyatining mazmuni dars mashg'ulotlari jarayonida o'zaro tajriba almashadi o'z faoliyatida amaliyotga tadbiiq etadi va kasbiy jihatdan rivojlanishga erishadi. Uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimida o'qitiladigan pedagogik yo'nalishdagi o'quv modullari tarkibiga sinf rahbarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan ma'lumotlarni singdirish, bu boradagi ishlarni tizimli ravishda yo'lga qo'yish orqali boshlang'ich sinf o'qituvchisining sinf rahbarligi bilan bog'liq kompetentligini rivojlantirib borish mumkin.

Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda malaka oshirish esa o'qituvchilarning mehnat faoliyati davomida o'quvchilarning ta'tili, o'qituvchilarning metodika kunlarida ta'lim tashkilotida, shu bilan birga xodimlarning bevosita ish joyida tashkillashtiriladi. Uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi turida ham pedagog xodimning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish va kasbiy rivojlanishga erishish uchun qulay hisoblanadi. Mazkur malaka oshirish turida o'qituvchi o'rgangan yangiligini darhol qo'llab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa o'qituvchining nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmaga aylantirib kasbiy kompetentligini rivojlantirib boradi.

Masofaviy ta'lim orqali malaka oshirishda ham boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini kasbiy rivojlanishlari uchun keng didaktik imkoniyatlarga ega. Masofaviy ta'lim o'quv rejalari va dasturlari asosida malaka oshiruvchilarning zarur malaka talablarini axborot texnologiyalaridan foydalanib masofaviy tarzda malaka oshirishni nazarda tutadi. O'qituvchilarning masofaviy tarzda malaka oshirishda dars mashg'ulotlari professor-o'qituvchining tinglovchilar bilan onlayn tarzda interfaol dasturiy tizimlardan foydalangan holda jonli muloqot tarzida amalga oshirilishi ham o'qituvchining kasbiy kompetensiyalarini

takomillashtirishda qulay hisoblanadi. O'qituvchi jonli muloqot shaklida bevosita o'zini qiziqtirgan savollarga javob oladi. Uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi onlayn malaka oshirish orqali o'qituvchining kasbiy kompetentligining asosiy tarkibiy qismi hisoblangan informatsion kompetentligi ham rivojlanib boradi.

O'qituvchi o'zini kasbiy jihatdan rivojlantirishda malaka oshirishning dual ta'lim turini ham tanlashi mumkin. Uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimining dual ta'lim asosida amalga oshirilishi kursining nazariy qismini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasida, amaliy qismini bevosita ish joyida amalga oshiriladi. Malaka oshirishning dual ta'lim shaklida amalga oshirilishi dastur materiallarini o'zlashtirgan tinglovchilarga tegishli tartibda kredit ballari taqdim etiladi.

O'qituvchining kasbiy kompetensiyasining rivojlantirishda mustaqil malaka oshirish ham ahamiyatlidir. Uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimining mustaqil ta'lim turi pedagoglarning o'z lavozimi va kasbiy mutaxassisligi yo'nalishida zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarni tinglovchi tomonidan uzluksiz kasbiy ta'lim trayektoriyasiga ko'ra mustaqil o'zlashtirib kasbiy kompetentligini takomillashtirib boradi. O'qituvchining kasbiy ehtiyojlariga qarab mustaqil malaka oshirish shaklini elektron platforma orqali onlayn tarzda ham tashkil qilish mumkin.

Pedagoglarning kasbiy kompetentligi va saviyasi davlat talablari, malaka talablari va kasbiy standartlar mazmunidan kelib chiqib shakllantirilgan nazorat materiallaridan foydalanib onlayn elektron platforma orqali diagnostik (tahlil) qilinadi.

O'qituvchining kasbiy rivojlanishi diagnostika qilinib natijalari aniqlanadi, kasbiy ehtiyojlari asosida o'qituvchi yoki pedagog xodimning individual kasbiy rivojlanishi (kasbiy traektoriya asosida) shakllantiriladi.

Pedagog xodimlar va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanish kasbiy ehtiyojlari asosida rivojlanish trayektoriyasiga mos keluvchi, o'qituvchining o'zlashtirishi kerak bo'lgan o'quv modullari aniqlanadi va o'qituvchi ushbu o'quv modullarini mustaqil ravishda o'zlashtirib oladi.

O'qituvchi mustaqil tarzda malaka oshirishni tanlasa mazkur kursning davomiyligi belgilangan tartibda akademik soatlar bilan o'lchanadi, kursning davomiyligi esa o'quv modullarini o'zlashtirishiga bog'liq holda olib boriladi.

Usluksiz kasbiy elektron platforma orqali malaka oshirishda o'quv modulini tinglovchining o'zlashtirishini baholaydi, kuzatib boradi va o'zlashtirgan modullar kesimida kredit ballarini yig'ib boradi. Malaka oshirishning mazkur turida ham o'qituvchi mutaxassisligi bo'yicha o'zini kasbiy rivojlantirib boradi.

O'qituvchilarning xususan sinf rahbarlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda qisqa muddatli kurslarning ham ahamiyati katta. Qisqa muddatli kurslarda ham sinf rahbarlarini tayyorlash va ularning nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarini rivojlanishiga olib keladi. Qisqa muddatli kurslarda boshlang'ich sinf rahbariga xos bo'lgan quyidagi kompetensiyalarni rivojlantirishni qamrab olish mumkin:

- boshlang'ich ta'lim mazmuni va muammolarini bilishi va o'zida xuquqiy savodxonlikni rivojlantirib boradi;

- boshlang'ich ta'lim fanlariga oid malaka talablari va davlat ta'lim standartlarini o'zlashtirishi;

- sinf rahbari faoliyatining mazmunini biladi, sinfni boshqarish ko'nikmasiga ega bo'lib bu boradagi muammolarni tahlil qila oladi;

- boshlang'ich ta'lim jarayoniga oid jarayoni to'liq tasavvur etadi va huquqiy meyoriy hujjatlarni tushunadi;

- boshlang'ich sinfda ta'lim- tarbiya monitoringini olib boradi natijalarini o'rganib va o'z faoliyatiga o'zgartirish bo'yicha kerakli qaror qabul qiladi;

- sinfidagi ta'lim sifatini o'rganib boradi fan o'qituvchilarining darslarini tahlil qilib boradi;

- boshlang'ich ta'lim sifatini belgilovchi omillar, ta'lim sifatini ta'minlashda sinf rahbar o'rnini tushunadi;

- maktabda ijro intizomining yuritilishini;

- boshlang'ich ta'limga oid meyoriy-huquqiy hujjatlarni yurita oladi;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarining nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalaridagi bo'shliqlarni to'ldirish va o'zlashtira olmaslikni oldini olishni;
- boshlang'ich ta'lim tashkil etish va boshqarishga oid hujjatlarni yurita oladi;
- boshlang'ich ta'limga oid axborot-tahliliy hujjatlar asosida ta'lim va tarbiya jarayonini boshqa oladi;
- maktabning boshqaruv jarayonidagi muammolari, dolzarb masalalari, joriy va kundalik ishlarini bajarish;
- davlat ta'lim standartlari asosida o'quvchilar bilimini monitoringini amaliyotda yurita olish;
- pedagogik jamoa bilimini tizimli monitoringini yuritish va ularning malakasini oshirishni tashkil etish;
- o'quvchilar bilimlaridagi bo'shliqlarni aniqlash va uni bartaraf etish;
- ta'lim sifatini monitoring qilishda ota-onalar qo'mitasi, vasiylik kengashi va mahalla bilan samarali ishlash;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarining nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalaridagi bo'shliqlarni to'ldirish va o'zlashtira olmaslikni oldini olish;
- monitoring natijalarini umumlashtirish va istiqbolli boshqaruv qarorlarini qabul qilish ko'nikmalariga;
- o'quv jarayonini boshqarishda ilg'or xorijiy tajribadan foydalanish;
- muassasa imijiga qo'yiladigan talablar asosida samarali boshqarish;
- zamonaviy ta'lim muassasasi rahbari qiyofasiga ega bo'lish;
- malaka oshirish kursida o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalardan kasbiy faoliyatda foydalanish;
- kasbiy faoliyatiga tegishli o'quv-metodik materiallarni to'plash va saralash;

- boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kommunikativ qobiliyati, o'z ustida ishlash, o'z o'zini rivojlantirish, inklyuziv ta'limni tashkil etish, moslashuvchanlik va mas'uliyat, o'quv jarayonini baholay oladi.

Sinf rahbarining kasbiy kompetentligining rivojlanganlik darajasi uning ma'naviy-marifiy faoliyatida va zimmasidagi vazifa va funksiyani qay darajada bajarishida namayon bo'ladi.

Uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi kurslarida boshlang'ich sinf rahbarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishni bu tarzda tashkil etilishi yuqori darajada pedagogik mahoratga ega sinf rahbarlarining ko'payishiga, ta'limni tubdan isloh qilinishiga, ta'lim sohasida yangi qirralarni zabt etilishiga olib keladi. Buning natijasida sinf rahbari o'zining serqirra faoliyatida ko'zlagan maqsadiga erishishi mumkinligini kuzatish mumkin.

Sinf rahbari o'zining zimmasidagi asosiy vazifalari va funksiyalarini chiqur his qilishi va vijdonan bajarishi kerak.

Quyidagilar sinf rahbarlarining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- sinf rahbari o'zi rahbarlik qilayotgan o'quvchilar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil qiladi;

- odob-axloq va ichki tartib qoidalariga muvofiq muomala va kiyinish madaniyatiga qat'iy amal qilish, jamoada namunali bo'lish;

- boshlang'ich sinfo'quvchilarning shaxs sifatida rivojlanishlarini pedagogik-psixologik jihatdan kuzatadi, o'quvchilarning ijtimoiy rivojlanishlarida nuqsonlar sezsa ularga metodik yordam ko'rsatadi, pedagogik maslahatlar beradi;

- boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ma'naviy va ma'rifiy tarbiyaviy ishlarni tashkil qiladi, maktab psixolog, ota-onalar, yoshlar yetakchisi, bevosita va bilvosita voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar, huquq-tartibot idoralari, mahalla, mahalladagi boshqa ijtimoiy institutlar bilan hamkorlikda ish olib boradi.

Sinf rahbarlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalarni ham bajarishi mumkin.

Sinf rahbarlari o'zlariga yuklatilgan asosiy vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

- barkamol, har tomonlama rivojlangan, intellektual, ma'naviy, jismoniy jihatdan baquvvat shaxsni tarbiyalash, boshlang'ich sinf o'quvchilarining qiziqishlari, ehtiyojlarini, qobiliyatlarini ko'rsata olishlari uchun tegishli sharoitlarni hozirlash;


- maktabda o'qituvchilar va o'quvchilar jamoasi bilan o'zaro hamkorlikda tarbiyaviy ishlarni o'tkazish, bunda har bir o'quvchining individual xususiyatlariga qarab yondashishlarilozim;

- ertalabki saflanishlarda sinf o'quvchilarining belgilangan tartibda to'liq ishtirok etishlarini ta'minlash;

- biriktirilgan sinf xonasidagi mavjud jihozlarning saqlanishini va ulardan samarali foydalanishni ta'minlash.

Sinf rahbarlari o'z faoliyatini o'quvchilarning yosh xususiyatlari, umumiy rivojlanish darajasi va layoqatlarini, qiziqishlari va ehtiyojlarini e'tiborga olib, tarbiyaviy ishlarni aniq maqsadni ko'zlab amalga oshirish vazifasini bajaradi. Sinf rahbarining faoliyati mazmunan boy bo'lishi uning kasbiy malaka va pedagogik mahoratiga, tajribasiga uzviy bog'langandir.

Sinf rahbarining tarbiyaviy ishlarni mazmunan boy va serqirra yo'nalishlarda tashkil etish barkamol insonni tarbiyalashning muhim shartlaridan biridir.



2.2.2- rasm. Sinf rahbarining tarbiyaviy ishlar yo'nalishi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy va ma'rifiy tarbiyasini tashkil etishda maktabda o'quvchilar tarbiyasiga mas'ul bo'lgan o'qituvchilar, psixolog, ota-onalar, xomiylik va vasiylik komissiyalar bilan hamkorlikda ishni tashkil etadilar. Boshlang'ich sinf rahbari keng jamoatchilik orasida vata'lim muassasasida sinf o'quvchilari va ota-onalari bilan birgalikda tarbiyalashga mas'ul shaxs hisoblanadi. Boshlang'ich sinf rahbarining asosiy maqsadi barkamol–ma'naviy, har tomonlama yetuk, jismoniy rivojlangan, aqliy jihatdan shakllangan shaxs tarbiyasini amalga oshirishdir. Boshlang'ich sinf rahbari bu masalada o'qituvchilardan iborat pedagoglar jamoasi va o'quvchilar jamoasi hamkorligida har ikki jamoaning o'zaro faolligi asosida tarbiyaviy ishlarni tashkil etadi. Maktablarda bir o'qituvchiga faqatgina bitta sinf rahbarligi birlashtiriladi. Ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari boshlang'ich sinf rahbarlari faoliyatini nazorat qiladi va metodik jihatdan yordam beradi.

Boshlang'ich sinf rahbarlari o'quvchilariga nisbatan mehribon, xushmohib bo'lishi, ularning rivojlanishini nazorat qilib, yordamga muhtoj o'quvchilarga individual tartibda yordam berishga o'tishi kerak. Mana shunday ishlarni tashkil qilish orqali o'quvchilarni vatanparvarlik, milliy g'urur, mas'uliyatlilik, ishbilarmonlik, tashabbuskorlik kabi xususiyatlar tarbiyalanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiya berishda sinf rahbarining shu sinfdagi dars beradigan barcha o'qituvchilar bilan hamkorlikda olib boradigan tarbiyaviy ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarda uchraydigan bo'shliqlarni bartaraf etishda hamkorlikning ushbu shakli yaxshi samara beradi.

Boshlang'ich sinf rahbari ishini amalga oshirishda o'quvchilarning umumiy rivojlanish darajalarini va yosh hususiyatlarini, qiziqishlari, qobiliyatlarini inobatga olib tarbiyaviy ishlarni tashkil etish yaxshi samarali natija beradi.

Har bir zamonaviy o'qituvchilarni o'qitibgina qolmasdan, balki ularga ta'lim ham beradi, ularning ilmiy dunyoqarashini va ma'naviy qiyofasini shakllantiradi. U tarbiya berish vazifasini asosan ta'lim berish

jarayonida darsda xal etadi. Shu bilan birga, u darsdan (sinfdan) tanqari tarbiyaviy ishlarni yo'lga qo'yishda ham ishtirok etadi

Boshlang'ich sinf rahbari tarbiyachi sifatida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mehnatsevarlik, kommunikativlik, iymon-e'tiqodlilik ruhida tarbiyalashda, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishda va sinfda ichki tartib intizomni mustahkamlashda o'quvchilar bilan amaliy ishlarni olib boradi. Boshlang'ich sinf rahbari ushbu tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda professional tarbiyachi sifatida yondoshmog'i, shu bilan birgalikda mas'ul, rasmiy shaxs sifatida tashkil etadi. Boshlang'ich sinf rahbarimaktabma'muriyatioldida, tuman xalq ta'limi bo'limi mas'ul xodimlarioldida o'zi rahbarlik qilayotgan sinfda g'oyaviy-siyosiy tarbiyaviy ishlarning ahvoli uchun, tarbiyaviy ishlarning mazmuni va yo'lga qo'yilishi uchun javobgar hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf rahbari o'quvchilarni tarbiyalash jarayonida aniq maqsadga yo'naltirilgan jipslashgan ishchan jamoani tashkil qiladi va o'quvchilarni mustaqil fikrlaydigan, kelajak egalari sifatida, komil insonlar qilib yetkazuvchi shaxsdir. Boshlang'ich sinf rahbari tarbiya berish vositalarini to'g'ri tashkil qilish orqali o'quvchilarda o'quv vazifasiga mas'uliyat bilan ongli munosabatda bo'lish hissi shakllantirmog'i, ta'lim olish jarayonida o'quvchilarning o'zaro yordamini yo'lga qo'yishi, ularni maktabda kundalik tartib-intizomga rioya qilishlarida o'rgatish, ta'lim berish sifatini oshirishda boshlang'ich sinfda dars beradigan barcha o'qituvchilarga amaliy jihatdan ko'maklashadi.

Jamoda o'quvchilar ularga qo'yiladigan yagona talabga amal qilishlari juda ham muhim hisoblanadi, o'quvchilar bilan yakka tartibda ish olib borish bo'yicha ham aniq rejaga tayanilsa samarali natija beradi. Sinf rahbarlarining sinflar bo'yicha bo'ladigan kengashlarida sinfda va sinfdan tashqarida amalga oshiradigan tarbiyaviy ishlarini rejalashtirish bo'yichab dolzarb masalalar yuzasidan maslahatlashib olinadi.

Boshlang'ich sinf rahbari yetakchisi va tashkilotchisi hisoblanadi. Sinf rahbari sinfida boshqa fanlardan dars beradigan o'qituvchilarning olib boradigan ta'lim-tarbiya ishlarining o'ziga xosligiga ko'ra, fan

o'qituvchilarining o'quvchilarga qo'yadigan talablarini bajarishda yaqindan ko'maklashadi, ba'zi o'quvchilar xulqi haqida, ularning ruhiyatiga ta'sir ko'rsatish haqida ometodik yordam ko'rsatadi. Boshlang'ich sinf rahbari faoliyati natijasida fan o'qituvchilarining tarbiyaviy ishlarni tashkil etishdagi tajribasidan unumli foydalanib o'quvchilar faoliyatini uyushtiradi.

Boshlang'ich sinf rahbari o'zining tashkilotchilik va tarbiyaviy ishlarini o'zi yolg'iz emas, balki maktab direktori va direktor o'rinbosarlari bilan birgalikda, o'z sinfida dars beradigan boshqa o'qituvchilar bilan mustahkam hamkorligida olib boradi. Fan o'qituvchilari sinf rahbariga ota-onalar va o'quvchilar majlislarini o'tkazishda, sinfdaturli tadbirlarni, ijtimoiy foydali mehnatni tashkil etishda, sayrlar va ekskursiyalarni tashkil etishda, yosh kitobxon ko'rik tanlovlarni, yig'ilishlarni, badiiy kechalarni o'tkazish sinf rahbarlarining yaqin hamkorlaridir.

Sinf rahbarining tarbiyaviy ishlar rejasi bevosita sinf rahbarining o'zi tomonidan tuziladi va maktab direktori tomonidan tasdiqlanadi. Boshlang'ich sinf rahbari ma'naviy-ma'rifiy faoliyatining samarali bo'lishi ota-onalari bilan mustahkam hamkorligiga uzviy bog'langan. Boshlang'ich sinf rahbarining tarbiyaviy ishlarda bunday hamkorlik shaklini tanlashi maktab tarbiyasi va oila tarbiyasini uyg'unlashtirishga keng imkoniyat yaratadi.

Maktab direktori va uning o'rinbosarlari sinf rahbari ish faoliyatini nazorat qilib boradi. Sinf rahbarining burch va vazifalari "Sinf rahbari to'g'risida" Nizomda yoritib berilgan.

Boshlang'ich sinf rahbarini majburiyati va zimmasidagi mas'uliyati nuqtai nazaridan maktabdagi boshqa pedagog xodimlar bilan qiyoslab bo'lmaydi. Ba'zan maktab direktorlari va direktor o'rinbosarlari sinfdagi tarbiya va ta'limning samaradorligi uchun mas'uliyatni sinf rahbarlari zimmasiga yuklashga harakat qiladi. Maktab ta'lim tizimiga bunday yondoshish to'g'ri ish emas. Boshlang'ich sinf rahbari maktabda ma'muriy lavozimdagi shaxs hisoblanmaydi, u o'ziga biriktirilgan sinf o'quvchilari bilan birgalikda maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy

ishlarni tashkil etadigan mas'ul shaxs xisoblanadi. Boshlang'ich sinfda ta'lim samaradorligi uchun sinf rahbarining mas'uliyati katta. Boshqa fan o'qituvchilari ham o'z sinfidagi ta'lim-tarbiya natijaviyligi, tartib uchun sinf rahbari bilan bir xil javob beradi.[13].

Inson barkamolligiga erishishida maktabning tarbiyaviy ahamiyati oshib borayotgan bir davrda boshlang'ich sinf rahbarlari barcha o'qituvchilar qatorida maktabda ta'lim-tarbiyaviy vazifalarni bajarib kelmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini intellektual jihatdan yetuk qilib tarbiyalash, ularning mustaqil faoliyatini yo'lga qo'yish ko'p jihatdan boshlang'ich sinf rahbarining mehnatiga bog'liq bo'ladi.

Boshlang'ich sinf madaniy ommaviy ishlar uchun mas'ul bo'lib, o'quvchilarning sifatli bilim olishlariga ko'maklashadi. U o'zlashirishda qiynalayotgan o'quvchilar bilan individual tarzda shug'ullanadi va ulardagi bo'shliqlarni bartaraf etadi.

Boshlang'ich sinf rahbari tarbiyaviy ishlarini amalga oshirishning asosiy shakli bo'lgan sinfdan tashqari ishlar ham o'quvchilar tarbiyasida muhim o'rin tutadi. U "Mohir qo'llar", qo'l hunari, bichish-tikish to'garaklarini, avtomobilchilangarligini o'rganish to'garagi, ekologiya, ona yurtni o'rganish bo'yicha ekskursiyalar o'tkazadi va o'quvchilarda vatanparvarlik ruhini shakllantiradi.

Boshlang'ich sinf rahbari sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni samarali tashkil etish orqali keng jamoatchilikning e'tiborini o'quvchilar tarbiyasiga jalb etadi.

Boshlang'ich sinf rahbari tarbiyaviy ish rejasini maktabda o'quv jarayoni boshlanishiga bir hafta qolganda maktab direktoriga tasdiqlatish uchun tayyor holga keltirishi kerak. Maktab direktori boshlang'ich sinf rahbarining tarbiyaviy ishlar rejalarini tasdiqlaydi, o'zining ma'naviy ishlar bo'yicha o'rinbosariga ijro nazoratini topshiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarni har tomonlama kamol toptirish, ularni hayotga va ijtimoiy munosabatlarga tayyorlash maktab ta'limining asosiy maqsadi bo'lishi kerak.

5-§. Malaka oshirish kurslarida boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarida sinf rahbari sifatidagi kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o‘tkazish

O‘rganilgan mavzu yuzasidan tadqiqot ishi yuzasidan muammoning amaliyotdagi holatini o‘rganish, olingan natijalarni tahlil qilish, muayyan xulosalarga kelish va shu asosda muammoning umumiy holatiga, mazmun-mohiyatiga baho berish alohida o‘rin tutadi.

O‘quvchilar jamoasini uyushtirish, ular bilan olib boriladigan ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarda, tarbiyaviy soatlarda, sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda samarali faoliyat olib borish sinf rahbari faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Sinf rahbarining ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatida kasbiy kompetentligini to‘laqonli namoyon eta olishi o‘z faoliyatini tashkil etishda zamonaviy yondoshuvlarga asoslanishni taqozo etadi. Dissertatsiyada malaka oshirish jarayonida boshlang‘ich sinf rahbari ishining mazmuni-mohiyati sinf bilan ishlashning metodik jihatlari, boshlang‘ich sinf rahbari o‘z faoliyatida kasbiy layoqatinini to‘liq ko‘rsata olishi bilan bog‘liq nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va hosil bo‘lgan malakalarni takomillashtirishda ta‘limning didaktik, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi xususiyatlaridan kelib chiqib sinf rahbarining kasbiy kompetentligini rivojlantirib borish yuzasidan zaruriy ko‘nikmalarni egallashi kerakligi asoslangan.

Belgilab olingan maqsad va vazifalar asosida, biz ilmiy-tadqiqot ishini qay tartibda amalga oshirishni rejalashtirib oldik.

Tajriba o‘tkazish uchun, Samarqand viloyati xalq ta‘limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi malaka oshirish toifasi boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilari yo‘nalishini tadqiqot obyekti etib belgilab oldik. Mazkur yo‘nalish tinglovchilaridan 142 nafari tadqiqot o‘tkazish uchun tanlab olindi.

Tadqiqotga jalb qilingan boshlang‘ich sinf rahbarlarining ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatini tashkil etishdagi ish usullari, amalga oshirayotgan tarbiyaviy ishlarining mazmun-mohiyati, metodikasi va shakllari kuzatildi, tahlil qilindi o‘rganib chiqildi.

Ilmiy tadqiqot ishimizda pedagogik tajribani uchta yo‘nalishda olib borishni rejalashtirib oldik:

1. Maktabdagi boshlang‘ich sinf rahbarlarining mavjud ish holatlarini o‘rganish maqsadida “Zamonaviy sinf rahbari” mavzusida so‘rovnoma o‘tkazish;

2. Boshlang‘ich sinf rahbarining ish faoliyati o‘rganish yuzasidan suhbat.

3. Anketa-so‘rovnomasi va amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari natijalari tahlilini o‘tkazish.

Pedagogik kuzatishlarimiz jarayonida boshlang‘ich sinf rahbarlarining kasbiy kompetensiyasining rivojlanish holati nuqtai nazaridan joriy holati va uning rivojlanib borish jarayonini o‘rganishga e‘tibor qaratdik. Ilmiy tadqiqotimizda qatnashayotgan boshlang‘ich sinf rahbari faoliyati, ish metodikasining mavjud holatini o‘rganish va tahlil qilishni maqsad qilib oldik. Buning uchun quyidagi pedagogik ilmiy-tadqiqot usullaridan foydalandik:

Boshlang‘ich sinf rahbari kasbiy kompetensiyasining rivojlanib borishini kuzatishga harakat qildik. Pedagogik kuzatishni olib boorish uchun ishlarni quyidagicha bosqichma-bosqich amaldaoshirib bordikva shu maqsadda biz boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar bilan sinf rahbarining faoliyatini o‘rganish yuzasidan so‘rovnoma o‘tkazdik.

Kasbiy kompetensiyasini rivojlanganlik darajasini aniqlash maqsadida “Zamonaviy sinf rahbari” mavzusida [https://forms.gle/xhaZVp6VoLxMan Pw 8](https://forms.gle/xhaZVp6VoLxManPw8) internet manzilida so‘rovnoma o‘tkazildi. (2-jadval) Boshlang‘ich sinfrahbarining faoliyativaish uslublarning mazmunini o‘rganish maqsadida “Zamonaviy sinf rahbari”so‘rovnoma natijalari quyidagicha bo‘ldi. Jami ishtirokchilar 142 nafar.

1. Hududingiz?

Samarqand shahar (21 nafar 14,8 %), Samarqand tumani (6 nafar 4,2 %), Kattaqo‘rg‘on shahar (2 nafar 1,4 %), Kattaqo‘rg‘on tumani (8 nafar 5,6 %), Bulung‘ur tumani (9 nafar 6,3 %), Jomboy tumani (7 nafar 4,9 %), Toyloq tumani (6nafar 4,2 %), Ishtixon tumani (9 nafar 6,3 %), Pastdarg‘om tumani (19 nafar 13,4 %), Neurobot tumani (11 nafar 7,7 %),

Paxtachi tumani (6 nafar 4,2 %), Payariq tumani (4 nafar 2,8 %), Qo'shrabot tumani (7 nafar 4,9 %), Urgut tumani (10 nafar 7 %), Narpay tumani(8 nafar 5,6 %), Oqdaryo tumani (9 nafar 6,3 %).

2. Yoshingiz?

- 30 yoshgacha (18 nafar, 12,7 %)
- 30-39 yoshgacha (61 nafar, 43 %)
- 40-49 yoshgacha (44 nafar, 31 %)
- 50-59 yoshgacha (19 nafar, 13,4 %)
- 60 yoshdan yuqori(-).

3. Pedagogik ish stajingiz?

- 1 yilgacha (1nafar, 0,7 %)
- 1-5 yil (24 nafar, 16,9 %)
- 6-15 yil (47 nafar, 33,1 %)
- 16-25 yil (40 nafar, 28,2 %)
- 25 yildan ko'p (30 nafar, 21,1 %)

4. Malaka toifangiz?

- Mutaxassis (86 nafar, 60,6 %)
- 2-toifa (30 nafar, 21,1 %)
- 1-toifa (23 nafar, 16,2 %)
- Oliy toifa (3 nafar, 2,1 %)

5. Ma'lumotingiz?

- O'rta-maxsus ta'lim (24 nafar, 16,9 %)
- Oliy yoki bakalavriat (117 nafar, 82,4 %)
- Magistratura (1nafar, 0,7 %)

6. Sinfingiz?

- 1-sinf (16 nafar, 11,3 %)
- 2-sinf (42 nafar, 29,6 %)
- 3-sinf (44 nafar, 31 %)
- 4-sinf (40 nafar, 28,2 %)

7. Maktabda sinf rahbaridan qanday hujjatlar yurutilishi talab qilinadi?

- Sinf jurnali, yillik ish reja, sinf o'quvchilarining tabellari, sinf yig'ma jildi (111 nafar, 78,2 %)

- Sinf jurnali, sinf o'quvchilarining tabellari, sinf yig'ma jildi (20 nafar, 14,1 %)

- Sinf jurnali, yillik ish reja, sinf o'quvchilarining tabellari (11 nafar, 7,7 %)

- Bunday hujjatlar mavjud emas (-).

8. Maktabda sinf rahbarining vazifalari qaysi me'yoriy hujjatga asosan muvofiqlashtiriladi?

- Umumiy o'rta ta'lim muassasasining sinf rahbarlari faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi Nimoza asosan (109 nafar, 76,8 %)

- O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonuniga asosan (23 nafar, 16,2 %)

- MMIBD o'rinbosarlarining ish rejalariga asosan (6 nafar, 4,2 %)

- Yuqori tashkilotlardan keladigan huquqiy me'yorlar hujjatlarga asosan (4 nafar, 2,8 %)

9. Sinf rahbari sifatidagi faoliyatingizda qiyinchiliklarga duch kelsangiz, kimdan (nimadan) yordam so'rab murojaat qilasiz?

- Maktab ma'muriyati va boshqa sinf rahbaridan (87 nafar, 61,3 %)

- Metodist, uslubiy birlashma raisa va a'zolaridan (29 nafar, 20,4 %)

- Internetdan (ijtimoiy tarmoqlardan) (8 nafar, 5,6 %)

- Men yordam so'ramayman, chunki tajribam yetarli (18 nafar, 12,7 %)

10. Sinf rahbari ekanligingizdan qanchalik mamnunsiz?

- Sinf rahbari sifatidagi faoliyatimdan to'liq qoniqish hosil qilaman (95 nafar, 66,9 %)

- Qisman qoniqdim, yanada yaxshiroq sinf rahbarlik qilishni xohlayman, lekin yordam kerak (44 nafar, 31 %)

- Shunchaki zimmamga yuklatilgan vazifalarimni bajaraman (2 nafar, 1,4 %)

- Sinf rahbarligiga yaxshi haq to'laganligi uchun shu vazifada ishlayman (1 nafar, 0,7 %)

11. Maktab ma'muriyat sizdan quyidagi vazifalardan qaysi biri muntazam, qaysi birini vaqti-vaqti bilan bajarishni talab qiladi?

Vazifalar	Muntazam	Vaqti-vaqti bilan
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining dars mashg'ulotlari va imtihonlarida qatnashish	82	60
Fanlarni o'zlashtirishda qiynalayotgan o'quvchilarga mo'ljallangan qo'shimcha dars mashg'ulotlari tashkil etish	117	25
O'quvchilar tarbiyasiga oid ishlarini amalga oshirish	111	31
Sinf faollari ishini nazorat qilish, ular bilan birgalikda yig'ilish kun tartibini belgilash va sinf yig'ilishlarini uyushtirish	62	80
O'qishdayuqtlarga erishgan, umumiy foydali mehnatda, maktab hayoti va jamoatchilik ishlarida faol o'quvchilarni taqdirlash	58	84
Sinf soatlarini tashkil etish	111	31
Maktab psixologi bilan yaqindan hamkorlik qilish va arur holatlarda dars jarayoniga taklif qilish	47	95
Boshlang'ich sinf o'quvchilarning ota-onalari bilan ta'lim-tarbiya masalalarida suhbatlashish, hamkorlik qilish, pedagogik maslahatlar berish	83	59
O'quvchilar xulqini nazorat qilish	138	4
Hamkorlikda olib boriladigan tadbirlarda muntazam qatnashmaydigan, farzandi tarbiyasiga e'tiborsiz ota-onalar bo'yicha maktab kuzatuv kengashiga va "Oila-mahalla-ta'lim muassasasi hamkorligi" Jamoat kengashlari bilan hamkorlikda ishlash	123	19

12. Maktabingizda sinf rahbarlari faoliyatini ma'naviy yoki moddiy rag'batlantiriladimi?

- Ha, ma'naviy va moddiy rag'batlantiriladi (33 nafar 23,2 %)
- Faqat ma'naviy rag'batlantiriladi (34 nafar 23,9 %)
- Ba'zi hollarda ma'naviy va moddiy rag'batlantiriladi (47 nafar 33,1 %)
- Umuman rag'batlantirilmaydi (28 nafar 19,7 %)

13. Sinfga doir hujjatlarni yuritishga munosabatingiz?

- Rasmiyatchilik uchun (12 nafar 8,5 %)
- Hujjatlarni yuritishda juda e'tiborliman (86 nafar 60,6 %)
- Maktab ma'muriyatining qat'iy talablari uchun hujjatlarini yurutaman (28 nafar 19,7 %)
- Hujjatlarni yuritishga qarshiman, chunki ortiqcha mablag' va vaqtni oladi (16 nafar 11,3 %)

14. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda qaysi manbalarga ko'proq murojaat qilasiz?

- Davriy nashrlar, uslubiy adabiyotlar va monografiyalarga (29 nafar 20,4 %)
- Maktab ma'muriyatiga va hamkasblarimga (41 nafar 28,9 %)
- Internetdan (ijtimoiy tarmoqlardan) (30 nafar 21,1 %)
- Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda shaxsiy tajribamdan foydalanaman (42 nafar 29,6 %)

15. Sinf jamoasini shakllantirishda qaysi mutaxassislarning yordami kerak va foydali deb o'ylaysiz?

- Maktab psixologi (63 nafar)
- Maktab ma'muriyatiga va hamkasblarimga (21 nafar)
- Mutaxassisga ehtiyojim yo'q, chunki tajribam yetarli (8 nafar)
- Logoped, defektolok, mahalla inspektori, din ishlari bo'yicha mas'ul, ota-onalar, metodistlarning (50 nafar)

16. Sinf rahbari sifatidagi qaysi faoliyatingizga ko'proq vaqt ajratasiz?

- O'quvchilar bilan ishlashga (83 nafar)
- Hujjatlar bilan ishlashga (29 nafar)

○ Kattalar bilan ishlashga (maktab ma'muriyati, fan o'qituvchilari va ota-onalar) (30 nafar)

17. Sinf rahbari sifatida ko'proq kim(lar) bilan ziddiyatga duch kelasiz? Jadvaldan tanlang va tegishli ustunga "+" belgisini qo'ying!

Ziddiyat toifalari	Ko'pincha	Ba'zan	Kamdan kam	Bo'lishi mumkin emas
Sinf jamoasi bilan	2	20	40	84
O'quvchilarning ota-onalari bilan	4	48	60	35
O'quvchilari bilan (individual)	8	31	46	61
Maktab ma'muriyati bilan	3	57	44	40
Fan o'qituvchilari bilan	2	44	45	52

18. O'tgan o'quv yilida siz uchun qanday maqsad va vazifalar eng muhim bo'ldi (rejadagi ishlarni yozish shart emas)?

○ _____

19. Sinf rahbari sifatidagi faoliyatingizda qanday kasbiy qiyinchiliklarga duch kelasiz?

○ Diagnostika (shaxsiyat, sinf jamoasi, tarbiya darajasi va boshqalar) va tanqidiy tahlil qilishda (41 nafar, 28,9 %)

○ Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda va yangi pedagogik texnologiyalarda (23 nafar, 16,2 %)

○ Tarbiyasi og'ir o'quvchilar va ularning ota-onalar bilan ishlashda (78 nafar, 54,9 %)

20. Siz sinf rahbari faoliyatining qaysi ish turlaridan muntazam, qaysi biridan esa vaqti-vaqti bilan foydalanasiz?

Ish shakllari	Muntazam	Vaqti-vaqti bilan
Boshlang'ich o'quvchilarning qobiliyatlariga qarab sport, fan, texnik badiiy-estetik, ekologik, o'lkashunoslik va sayyohlik yo'nalishlaridagi to'garaklarga jalb qilish	92	50
Tarbiyaviy ishlarda va bilim olishda iste'dodli o'quvchilarni rag'batlantirish	102	40
Milliy madaniyatning asosi bo'lgan kino, musiqa, badiiy adabiyot, qo'shiq, xalq og'zaki ijodi, naqqoshlik va me'morchilik teatr, kabi tarbiya vositasida o'quvchilar dunyoqarashini rivojlantirish uchun madaniyat saroylariga ota-onalar bilan hamkorlikda jalb etish	41	101
O'quvchilarni yozgi sog'lomlashtirish oromgohlarida dam olishini tashkil etish, kuzgi, qishki va bahorgi ta'til kunlarini mazmunli o'rkazishi uchun ota-onalar bilan hamkorlikda sharoit yaratish	48	94
Turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda (bayramlar, ko'rik-tanlovlar, uchrashuvlar, sport musobaqalari, kechalar) boshlang'ich sinf o'quvchilarining faol ishtirokini ta'minlash	88	54
Sinf jamoasi bilan hamkorda sinf faollarini saylash va o'quvchilar davomatini muntazam kuzatib boorish va tahlil qilish	126	16
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ehtiyoji, qobiliyatlari va qiziqishlari, motivlarini atroflicha o'rganish	111	31
Boshlang'ich sinf o'quvchilarning kun tartibi tuzishini tashkil etish va uning bajarilishini ota-onalar hamkorligida nazorat qilish	105	37
O'quvchilarning huquqiy savodxonligini	99	43

oshirish, tushunchalar berib borish, qonunga hurmat hissini shakllantirish		
O‘quvchilarda maktab hududi, binosi, yo‘laklari va sinf xonalarini ozoda tutish bilan bog‘liq ekologik tarbiya ko‘nikmalarini mustahkamlab borish	111	31
Sinf jurnali va faoliyatiga doir boshqa hujjatlarning to‘g‘ri yuritib borish	113	29
Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘zlashtirishini darajasini oshirish, tartib-intizomni mustahkamlashga qaratilgan sinf majlislarini o‘tkazish	83	59
O‘qishda yutuqlarga erishgan, umumiy foydali mehnatda, maktab hayoti va jamoatchilik ishlarida faol o‘quvchilarni taqdirlash, ularning ota-onasiga tashakkurnoma, minnatdorchilik xatlari yuborish	73	69
O‘quvchilarning sog‘lom turmush tarzi, oila muhiti, shaxsiy gigiyenasi va zararli odatlardan saqlanish, jismoniy tarbiya masalalarga e’tibor qaratish	91	51
O‘quvchilarning past o‘zlashtirish sabablarini aniqlash, bartaraf etish bo‘yicha tegishli fan o‘qituvchilari, yoshlar yetakchisi va maktab psixologi bilan birgalikda ishlash	106	36
Ta’lim muassasasi tibbiyot xodimlari, o‘qituvchilari, psixolog va ota-onalar bilan hamkorlikda o‘quvchilarning sog‘lig‘ini himoyalash, ma’naviy-ma’rifiy, jismoniy va aqliy jihatdan rivojlanishini nazorat qilish	99	43
O‘quvchilarning ta’lim muassasasida texnika xavfsizligi, ularni muhofaza qilish, sanitariya-gigiyena qoidalari va me’yorlari talablariga	106	36

rioya qilishini ta'minlash		
Kasbiy malakasini oshirib borish, yo'nalishi bo'yicha turli seminarlarda ishtirok etish	78	64

21. Maktabda (tumanda, shaharda) sinf rahbarlari uslubiy birlashmasi (metodist)larining ish faoliyati yuritishi to'g'risida fikringiz?

- Yuqoridan berilgan topshiriqlarni bajarilishini nazorat qiladi
- Ish faoliyatimda amaliy va metodik yordam ko'rsatiladi
- Sinf rahbarlarining uslubiy birlashmalarining ish faoliyati tashkil etilmagan

22. Sinf rahbarlari uslubiy birlashmasimalarini ish faoliyati rivojlantirishga takliflaringiz?

- _____

Boshlang'ich sinf rahbarining ma'naviy-ma'rifiy faoliyatitarrbiyaviy ishlar tizimini o'rganish maqsadida "Zamonaviy sinf rahbari"so'rovnoma natijalaridan ma'lum bo'ldiki sinf rahbarlarining bugungi kunda ish samaradorligini ham yuqori darajada deb bo'lmaydi.

So'rovnomanatijalaritahlilqilindi.

Keyingi bosqichda belgilab olingan vazifalardan sinf rahbarining faoliyati va kasbiy kompetensiyasining rivojlanganlik darajasini aniqlash maqsadida suhbat o'tkazdik:

1. Sinf rahbari sifatida vazifangiz va funksiyalaringiz nimadan iborat ekanligini bilasizmi?

2. Siz sinf rahbari sifatida o'quvchilari bilan tarrbiyaviy ishlarda muvoffaqiyatga erishish uchun nima ishlarni amalga oshirgansiz?

3. Kasbiy kompetensiyaga ega bo'lish uchun o'qituvchilarda xususan boshlang'ich sinf rahbarlarida qanday sifatlar shakllangan bo'lishi kerak.

4. Siz faoliyatingiz davomida kasbiy kompetentligingizni rivojlantirib borish uchun qanday ishlarni amalga oshirib borasiz?

5. Kasbiy faoliyatingizda davomida o'z ustingizda ishlash borasida amalga oshirib borayotgan ishlaringiz haqida ma'lumot bering?

Savollarga olingan javoblar diagnostikasi amalga oshirildi. Olingan natijalar keyingi bosqich uchun tadqiqot rejasini amalga oshirish imkonini berdi. Shu asosida keying bosqich rejalashtirib olindi.

Tadqiqotga jalb qilingan boshlang'ich sinf rahbarlaridan quydagi savollardan iborat anketa so'rovnomma o'tkazildi:

1. Pedagogik jamoa, ota-ona, o'quvchilar bilan ijtimoiy munosabatlarda o'zingizni namoyon eta olasizmi?

- Samarali natijaga erisha olaman
- Vaziyatdan kelib chiqib yondoshaman
- Ko'proq maktab ma'muriyati ko'satmalariga amal qilaman

2. Siz o'z-o'zingizni rivojlantirish va doimiy ravishda kasbiy o'sishga erishish nima qilishni lozim deb bilasiz?

- o'z ustida ishlash va doimiy malaka oshirib boorish
- maktab ma'muriyati tomonidan berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish

- ommalashgan pedagogik tajribalarni o'zlashtirish va amaliyotga tadbiq etish

3. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining maxsus kasbiy kompetentligi deganda nimani tushunasiz?

- kasbiy kompetentligini tizimli ravishda rivojlantira olish;
- tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tizimli ravishda o'tkazish;
- maxsus kompetentlik uchun kerak bo'lgan psixologik, pedagogik, kreativ, information, metodik kompetentlikka egalik.

4. Sizningcha boshlang'ich sinf rahbarining kasbiy layoqati, amaliy ko'nikmasini rivojlantirishning mazmun- mohiyati nimadan iborat?

- ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy didaktik vositalardan foydalanish malakasiga egalik;
- axborot texnologiyalaridan faoliyati davomida maqsadga muvofiq, samarali foydalana olishida;
- sinf rahbari o'z kasbiy faoliyatida texnologik kompetentligini namoyon etaolishida.

5. Sinf rahbarining ekstrimal kompetentligining mazmuni qaysi javobda ko'proq aks etgan deb o'ylaysiz?

- favqulotda holatlarda va muammoli vaziyatlardasamarqali yo'llarni topa olish, o'zini yo'qotib qo'ymaslik;

- pedagogik jamoa oldida tashabbuskorlik, yangi g'oyalarga egaligi bilan ajralib turadi, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan tarbiyaviy ishlarni mohirona tashkil eta oladi;

- boshlang'ich sinf rahbarining lavozim majburiyatlarini bajarishgavijdonan yondoshish, vazifa va funksiyalarini sidqidildan bajara olishi.

Tadqiqot natijalari tahlili shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinf rahbarlari o'z faoliyatlarida kasbiy kompetentligini rivojlantirish ustida tizimli ish olib borishi maqsadga muvofiq. Ammo, takidlashimiz kerakki boshlang'ich sinf rahbarining faoliyati ish tizimiga oid uning kasbiy kompetentligini rivojlantirishni malaka oshirish tizimi bilan bog'liq ravishda amalga oshirish masalalari bugungi kunda yetarlicha tadqiq etilmagan. Bevosita mazkur masalalaning yechimi bilan bog'liq ilmiy tadqiqot ishlari yetarli darajada amalga oshirilmagan, mazkur yo'nalishda o'quv qo'llanmalar yetarli emas va metodik jihatdan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilmaganligini aytib o'tishimiz joiz. Ushbu muammolarning samarali yechimini aniqlash ichin boshlang'ich sinf rahbarlari uchun pedagogik trening o'tkazdik. Teningda malaka oshirish kursiga kelgan boshlang'ich sinf rahbarlari jalb qilindi va ularga "Sinf rahbari faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Nizomining mazmuni haqida ma'lumot berdik. Nizomga ko'ra tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish, boshlang'ich sinf rahbari ishini baholash (1-ilovada keltiriladi) boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixikasi, tarbiyalanayotgan muhiti bilan tanishildi, sinfni jamoaga jipslashtirish ishlari olib borildi, oila va mahalla bilan hamkorlikda turli tadbirlar o'tkazildi. Metodik tavsiyalar va tarqatma materiallar berib borildi. "Men zamonaviy boshlang'ich sinf rahbariman" mavzusida zamonaviy sinf rahbarlarining taqdimot ishi tashkil qilindi. Ushbu taqdimotda biz tavsiya qilgan o'quvchilar psixikasini o'rganish, ular tarbiyalanayotgan oila bilan, mahalla bilan amalga oshirilgan

hamkorlikdagi ishlari aks etishi kerak edi. Sinf rahbarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishni o'zida aks ettirgan kasbiy rivojlantirish modeli (2-ilovada keltirildi), kasbiy rivojlanish shkalasi va uning mazmuni bilan tanishtirildi (3-ilovada keltirilgan) va kasbiy faoliyatlarida foydalanish bo'yicha tavsiyalar berildi. Amalga oshirilgan ishlar tizimli ravishda amalga oshirilganda tadqiqot guruhidagi sinf rahbarlari faoliyatida kafolatlangan samarali natijaga erishildi.

O'tkazilgan tajriba-sinov ishlarida boshlang'ich sinf rahbarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish yuzasidan amalga oshiriladigan ishlar tizimi ishlab chiqildi va boshlang'ich sinf rahbari faoliyati kasbiy kompetentligini rivojlantirishga doirtavsiya qilingan metodikaning natijaviyligi sinf rahbarining ma'naviy-marifiy faoliyatining mazmunan boyishiga, kasbiy kompetensiyasining rivojlanib borishi uchun zamin yaratdi.

6-§. Boshlang'ich ta'limda sinf rahbarlarining faoliyatining ish uslubini tahlili

Tadqiqotga jalb etilgan boshlang'ich sinf rahbarlari faoliyatini ish uslubini, kasbiy kompetentligining mazmuni, rivojlanishini chuqur, atroflicha o'rganishni tahlil qilishda statistik metoddan foydalandik.

Tadqiqotga jalb qilingan 100 nafar boshlang'ich sinf rahbarlarining 50 nafari nazorat guruhiga va 50-nafari tajriba guruhi ga jalb etildi.

Tajriba guruhi bilan sinf rahbari faoliyatiga oid ishlarda sinf rahbarining ish tizimi mavzusida davra suhbat tashkil etildi. Davra suhbatida sinf rahbari ish tizimiga oid ma'lumotlar sinf rahbarini vazifasi, hozirgi davr talablarini anglab yetishi masalalari tahlil qilindi va interfaol treninglar o'tkazildi. Buning natijasida har bir sinf rahbari o'z ish tajribasidan kelib chiqib bir-birlari bilan fikr almashdilar.

Sinf rahbari faoliyatini o'rganish maqsadida tashkil etilgan suhbat natijalari quyidagicha ko'rsatgichlarga ega bo'ldi.

Savollar quyidagicha:

1. Sinf rahbari sifatida vazifangiz va funksiyalaringiz nimadan iborat ekanligini bilasizmi?

2. Siz sinf rahbari sifatida o'quvchilari bilan tarbiyaviy ishlarda muvoffaqiyatga erishish uchun nima ishlarni amalga oshirgansiz?

3. Kasbiy kompetensiyaga ega bo'lish uchun o'qituvchilarda xususan boshlang'ich sinf rahbarlarida qanday sifatlar shakllangan bo'lishi kerak.

4. Siz faoliyatingiz davomida kasbiy kompetentligingizni rivojlantirib borishingiz uchun qanday ishlarni amalga oshirishingiz zarur?

5. Kasbiy faoliyatingiz davomida o'z ustingizda ishlash borasida amalga oshirib borayotgan ishlaringiz haqida ma'lumot bering?

Malaka oshirish jarayonida boshlang'ich sinf rahbarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish yuzasidan o'tkazilgan tajriba-sinov natijalari bo'yicha nazorat va tajriba guruhlaridagi sinf rahbarlarini uch guruhga bo'lindi.

1-guruh (yuqori daraja) Pedagogik yuksak mahoraga ega bo'lgan, o'zishining mohir ustasi, o'quvchilar psixologiyasini yaxshi bilgan, o'quvchilar bilan oson muloqatga kirisha oladigan, muammoli vaziyatlardan tez chiqa oladigan, ota-onalar bilan natijali ish olib boradigan, sinf jamoasini jipslashtira olgan, kasbiy kompetentligini har doim namoyon qila oladigan.


2-guruh (o'rta daraja). Pedagogik mahorati o'rta, ongli, o'quvchilarga pedagogik ta'sir eta olishi, tarbiyaviy ish tajribasiga ega bo'lgan o'z kasbiga hos malakalarni mavjudligi, ma'naviy yetuk tarbichi, sinfni tashkil etish, sinf jamoasini jipslashtira oladigan sinf rahbari.

3-guruh (quyi daraja). Kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga moyilligi bor, kasbiy kompetentlik sifatleri mazmuni deyarli nomoyon bo'lmagan, ammo sinf rahbarining tarbiyaviy ishlarini shakl va metodlariga oid bilimlarini egallash ehtiyoji mavjudligi bilan ifodalanadi.

(1-jadval)

Savollar	Javoblar mazmuni	1	2	3	4	5
100 nafar sinf rahbarlari%	Yuqori daraja	80 %	50 %	50 %	40 %	40 %
	O'rta darajada	90 %	60 %	60 %	60 %	50 %
	Quyi darajada	-	-	-	20	20

Sinf rahbari faoliyatini o'rganish maqsadida tashkil etilgan suhbat natijalari dagrammasi



Tadqiqot ishining navbatdagi bosqichida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga oid tajribalarni o'tkazdik. Boshlang'ich sinf malaka oshirish kurslarining mutaxassislik fanlar blokidagi modullaridan tayyorlangan metodik majmualar tarkibiga mavzular kesimida sinf rahbarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan mazmun singdirildi.


Dars mashg'ulotlaridan tashqari "Sinf rahbarining kasbiy kompetentligini ilmiy–metodik jihatdan takomillashtirish" nomli 36 soatga mo'ljallangan qisqa muddatli kurs tashkil etildi. Boshlang'ich sinf rahbarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish yuzasidan seminar treninglar, mahorat darslari, davra suhbatlari tizimli ravishda o'tqazib kelindi.



Biz tomondan olib borilgan kuzatishlar va tadqiqot ishlarimiz natijalari tadqiqot yakunida shuni ko'rsatdiki sinf rahbari ish tizimini yanada takomillashtirib yuqori ko'rsatkichiga ega bo'ldi.

Sinf rahbari faoliyatini o'rganish maqsadida tashkil etilgan suhbat natijalari quyidagicha ko'rsatgichlarga ega bo'ldi.

3-jadval

№	Yuqori daraja		O'rta darajada		Quyi darajada	
	Tadqiqot boshida	Tadqiqot oxirida	Tadqiqot boshida	Tadqiqot oxirida	Tadqiqot boshida	Tadqiqot oxirida
1	80 %	100 %	90 %	100 %	-	-
2	50 %	80 %	60 %	80 %	-	-
3	50 %	90 %	60 %	80 %	-	-
4	40 %	85 %	60 %	75 %	20	80 %
5	40 %	80 %	50 %	70 %	20	75 %





Olingan ma'lumotlar qiyosiy tahlil etilganda boshlang'ich sinf rahbarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun biz ishlab chiqqan metodikamiz samarali natijaga erishildi.

Shunday qilib malaka oshirish jarayonida boshlang'ich sinf rahbarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish maqsadida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari bo'yicha (2020-2022) o'tkazilgan tadqiqot natijalari yuqorida keltirilgan natijalar asosida sinf rahbarining ish tizimini, kasbiy kompetentligining rivojlanganligini aniqlab, ularni guruhlarga ajratish imkonini berdi.

Boshlang'ich sinf rahbarlarining kasbiy kompetensiyasining rivojlanganligini aniqlash uchun o'tkazilgan anketa-so'rovnoma o'tkazildi:

1. Pedagogik jamoa, ota-ona, o'quvchilar bilan ijtimoiy munosabatlarda o'zingizni namoyon eta olasizmi?

- Samarali natijaga erisha olaman
- Vaziyatdan kelib chiqib yondoshaman
- Ko'proq maktab ma'muriyati ko'satmalariga amal qilaman

2. Siz o'z-o'zingizni rivojlantirish va doimiy ravishda kasbiy o'sishga erishish nima qilishni lozim deb bilasiz?

- o'z ustida ishlash va doimiy malaka oshirib boorish
- maktab ma'muriyati tomonidan berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish

- ilg'or tajribalarni o'rganish va amaliyotga tadbiq etish

3. Boshlang'ich sinf o'qituvchisibning maxsus kasbiy kompetentligi deganda nimani tushunasiz?

- mustaqil ravishda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatini tashkil eta olishi
- mutaxassisligi bo'yicha yangi bilim va ko'nikmalarni mustaqil ravishda izchil o'zlashtirib borish

- Kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan pedagogik, psixologik, metodik, kreativ, information layoqatga egalik

4. Sizningcha sinf rahbarining kasbiy-pedagogik bilim, ko'nikma va malakalarni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish faoliyatining mazmuni nimalardan iborat deb o'ylaysiz?

- ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy didaktik vositalardan foydalanish malakasiga egalik

- axborot texnologiyalaridan faoliyati davomida maqsadga muvofiq, samarali foydalana olishida

- sinf rahbari o'z kasbiy faoliyatida texnologik kompetentligini namoyon etaolishida

5. Sinf rahbarining ekstrimal kompetentligining mazmuni qaysi javobda ko'proq aks etgan deb o'ylaysiz?

- favqulotda holatlarda va muammoli vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik

- tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish va maktab jamoasi oldida o'zini tashabbuskor pedagog sifatida namoyon eta olishi

- sinf rahbarining lavozim majburiyatlarini chuqur his qilish, vazifa va funksiyalarini sidqidildan bajara olishi

Sinf rahbarlarining kasbga oid ko'nikma va malakalarining holati bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov natijalari.

1-jadval


Darajalar	Nazoratguruhi		Tajribaguruhi	
	Tadqiqot boshida	Tadqiqot yakunida	Tadqiqot boshida	Tadqiqot yakunida
Yuqori	10/20%	20/40%	9/19%	35/70%
O'rta	10/20%	17/36%	14/28%	9/19%
Quyi	30/60%	13/24%	27/53%	6/11%

Boshlang'ich sinf rahbarlarining kasbiy kompetentligining rivojlantirish holati bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov natijalari diagrammalarda ham berildi.

2^A -diagramma

Nazorat guruhi


Tajriba guruhi



2^B -diagramma

Nazorat guruhi

Tajriba guruhi



Mazkur jadvalning tahlili shuni ko'rsatadiki, tajriba-sinov ishlarining yakunida nazorat va tajriba guruhlarida sinf rahbarlarining kasbga oid ko'nikma va malakalarining ortganligini jumladan tajriba yakunida o'zgarganligini ko'ramiz.

XULOSA

Maktab ta'lim tizimining asosiy tarkibiy elementi bu sinfdir. Aynan shu yerda bilish faoliyati tashkil etiladi, o'quvchilar o'rtasida ijtimoiy munosabatlar shakllanadi. Maktabning o'zini o'zi boshqarish organlarida vakillik vazifalari ham ko'pincha sinf nomidan amalga oshiriladi. Sinflarda o'quvchilarning ijtimoiy farovonligi haqida g'amxo'rlik ko'rsatiladi, bolalarning bo'sh vaqtlari va jamoani shakllantirish muammolari hal qilinadi va tegishli hissiy muhit shakllanadi. Sinfdagi o'quvchilar faoliyatining tashkilotchisi, o'quvchiga tarbiyaviy ta'sirlarni muvofiqlashtiruvchisi sinf rahbari hisoblanadi. Aynan u o'quvchilar bilan ham, ularning ota-onalari bilan ham bevosita aloqada bo'ladi.

Hozirgi vaqtda sinf rahbarligining bir necha turlari mavjud:

- a) bir vaqtning o'zida sinf o'qituvchisi vazifasini bajaradigan fan o'qituvchisi;
- b) faqat ta'lim funksiyalarini bajaradigan ozod qilingan sinf rahbari;
- c) har qanday ishni nazorat qilish ishonib topshirilgan sinf kuratori (ishonchli);
- d) o'quvchilar o'qituvchining bir qator tashkiliy funksiyalarini bajarishi sharti bilan nazoratni amalga oshiradigan tarbiyachi (himoyachi, homiy).

Davlatning gullab-yashnashi, xalqning farog'ati odob-axloq ya'ni tarbiya tufaylidir. Tarbiya, asosan, bizning dilimizga jamiyat uchun foydali bo'lgan fazilat urug'larini sochmog'i lozim. Tarbiya jarayoni tarbiyalanuvchini intellektual jihatdan rivojlantirish va unga belgilangan hajmdagi bilimni shakllantirish bilan emas, insonda mehnatga, ilm egallashga va o'zini-o'zi rivojlantirishga intilish hoxishini uyg'otishi kerak. Tarbiya, bu nisbatan keksaroq avlodning o'z tajribasi, o'z ehtirosi, o'z e'tiqodini yosh avlodga topshirishi demakdir.

Tarbiyaning bosh vazifasi odamni yaxshi qadam bosishga majbur etishgina emas, balki bu yaxshi ishlardan huzurlanishga ham o'rgatish va faqat ishlabgina qolmay, ishni sevish ham lozimdir.

Tarbiya bizni yo'ldan ozdirmay turishining o'zi kifoya emas, u tobora bizni yaxshilab bormog'i lozim. Bizningchabola tashqi tomondan

qanday yaratilgan bo'lsa, u shundayligicha qolmasligi kerak, biz ularni tarbiyalashimiz va ilm olishini, ma'naviy va intellektual jihatdan rivojlanishini rag'ballantirishimiz lozim. Tarbiya odamda mehnatga ko'nikma va mehrni kuchaytirmog'i lozim, u insonga hayotda o'ziga loyiq ish topa bilish imkoniyatini bermog'i zarur. Tarbiya qiyin ish va tarbiya shart-sharoitlarini yaxshilash har qanday kishining ham muqaddas burchlaridan biridir.

Zero, o'zini va tevarak-atrofdagilarni ma'lumotli qilishdan ham ko'ra muhimroq ish yo'q. Har bir mamlakatda insonni voyaga yetkazish san'ati idora etish uslubi bilan shu qadar chambarchas bog'lanib ketganki, ijtimoiy tarbiyaga doir u yoki bu muhim o'zgarishni davlat tuzumining o'ziga o'zgartirish kiritmasdan turib amalga oshirish mumkin emas.

Chinakam tarbiya yuksak ezgulikdir, aks holda, u hech nimaga yaramaydi. Barcha kashfiyotlar ichida eng go'zali yaxshi tarbiya olgan insondir. Tarbiya ikki negizga-axloq va oqillikka tayanmog'i lozim. Biz tarbiyalayotgan insonda axloqiy soflik, ma'naviy boylik, jismoniy barkamollik uyg'unlashib ketmog'i lozim.

Ushbu uslubiy qo'llanmada boshlang'ich ta'lim sinf o'qituvchilarning sinf jamoasi bilan ishlashdagi kompetentligini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari ilmiy-nazariy jihatdan ishlab chiqildi.

Boshlang'ich ta'limda sinf rahbarlari bilan uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi jarayonidagi dars va darsdan tashqari vaqtlarda, tinglovchilar turar joylari, kutubxonalarda o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlarning yo'nalishlari va takomillashtirish yo'llari tavsiya etilgan. Ayniqsa, o'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirish muammolarini ilmiy jihatdan tadqiq qilgan pedagog olim Markova Anastasiya Konstantinovna, ilmiy tadqiqotchi Barno Nazarovalar ilmiy tadqiqot ishlari, pedagog xodimlar kasbiy malakasini oshirish masalalarining muammolarini ilmiy jihatdan o'rgangan olimlar Noulz M.Sh., Yo'ldoshev M.A, Choriyev R.Q, Shodiyev N., Ibragimov A.A.lar o'zlarining ilmiy ishlarida pedagoglarni kasbiy kompetentligini rivojlantirishni malaka oshirish bilan bog'lab o'rganildi. Shu munosabat

bilan ushbu qo'llanmada o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish boshlang'ich ta'limda o'qituvchilariningsinf rahbarligining ma'naviy-marifiy faoliyatini takomillashtirishning ahamiyati ko'rsatilgan. Bu borada Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazida to'plangan tajribalari, pedagogika markazida boshlang'ich ta'limida sinf rahbarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimi o'rganildi.

Pedagogika markazlarida olib boriladigan o'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan dars mashg'ulotlari, qisqa muddatli kurslar va markaz ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning tinglovchilar faoliyatidagi o'rni, tizimi va ularning nazariy asoslari tahlil qilindi.

Shu bilan birga o'quv-tarbiya jarayonida boshlang'ich ta'limda sinf rahbarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish maqsadida ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni yo'lga qo'yishda quyidagilarga e'tibor berish zarurligi aniqlandi:

- har bir dars jarayonida o'tiladigan mavzularda ma'naviy-axloqiy fazilatlarga e'tibor berish va ulardan tarbiya jarayonida foydalanish;

- ta'lim jarayonida umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatlilik, ma'naviy merosimizni o'rganish va rivojlantirish masalalariga ahamiyat berish;

- o'tiladigan mavzular asosida boshlang'ich sinf rahbarining kasbiy ehtiyojlarini o'rganish va baholashga alohida e'tiborni qaratish;

- malaka oshirish kurslarida dars mashg'ulotlarida boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining o'zaro tajriba almashishini ta'minlash, mustaqil ishlarini tashkil qilish;

- boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining faoliyat mazmunini boyitishda tarbiyaviy ishlar rejasiga ega bo'lish;

- sinf rahbarining kasbiy faoliyati bilan bog'liq ma'naviyat-ma'rifat tushunchalarining mazmuni haqida ma'lumotlarini yanada boyitish tinglovchilarning kasbiy tajriba almashishini tashkil qilish metodikasini ishlab chiqish

-tinglovchilarning sinf rahbarligi bilan bog'liq ma'naviy-ma'rifiy faoliyatini yanada rivojlantirish va bu borada fanlararo aloqani amalga oshirish;

-boshlang'ich ta'lim sinf rahbari va o'quvchilar jamoasida samarali muloqot o'rnatish va oilalarda, mahallalarda o'quvchilar bilan ishlashning nazariy-ilmiy va amaliy-metodik jihatdan pedagogik asoslari ishlab chiqish kerak.

Uslubiy qo'llanmaning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib tadqiqot metodikasi va uning tashkil etilishi, boshlang'ich ta'limda sinf rahbarlari bilan o'tkazilgan tajriba-sinov natijalari batavsil yoritib berildi. Sinf rahbarlarining kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini, kasbiy kompetentligining rivojlanganlik darajalarining holatini o'rganish uchun 22 savoldan iborat "Zamonaviy sinf rahbari" mavzusida <https://forms.gle/xhaZVp6VoLxManPw8> internet manzilida so'rovnoma o'tkazildi. Sinf rahbarining hozirgi kunda olib borayotgan ish faoliyati o'quvchilar shaxsini shakllantirishda, ularni ijtimoiy hayotga tayyorlashda sinf rahbarining o'rnini va roli va vazifasi, ish tizimi takomillashtirildi.

Tajriba-sinov jarayoniga 142 nafar boshlang'ich sinf rahbari jalb etilib ularning 50 nafari nazorat guruhida, 50 nafari tajriba guruhlariga birlashtirildi. Nazorat guruhining belgilangan o'quv reja asosida o'quv modullaridan dars mashg'ulotlarida ishtiroki nazorat qilib borildi. Tajriba guruhida samarali natijaga erish uchun boshlang'ich sinf sinf rahbarining kasbiy kompetentligining tarkibiy qismlar, mazmuni, kasbiy kompetensiyani rivojlantirishning shakl, metod va vositalaridan xabardorligini aniqlash va shu jihatdan bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish uchun suhbat, anketa-so'rovnoma o'tkazildi va ularning natijasi tahlil qilinib bajariladigan ishlar rejalashtirib olindi.

Tajriba guruhidagi boshlang'ich ta'lim sinf rahbarlari bilan kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan davra suhbatlari, o'zaro tajriba almashish mashg'ulotlari, mahorat darslari tashkil etildi. "Sinf rahbarining kasbiy kompetentligini ilmiy-metodik jihatdan

takomillashtirish” nomli 36 soatga mo‘ljallangan qisqa muddatli kurs tashkil etildi va unga tajriba guruhidagi respondentlar jalb etildi.

Tajriba yukunida nazorat va tajriba guruhlarining boshlang‘ich ta‘limda sinf rahbarining kasbiy kompetensiyasining rivojlanganlik darajasini o‘rganish uchun yana anketa so‘rovnoma o‘tkazildi. Natijalar tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida boshlang‘ich ta‘limda sinf rahbarlari uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqdik.

Barkamol avlodni tarbiyalash ularda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish kabi dolzarb vazifalarni amalga oshiruvchi boshlang‘ich sinf rahbaridir. Mazkur masalaga sinf rahbarining kasbiy kompetentligini muntazam ravishda rivojlantirib boorish orqali erishish mumkin. Bu masalaga bo‘ljak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarini tayyorlovchi oliy ta‘lim muassasalarida ham mutaxassislar tayyorlashda sinf rahbarlik ko‘nimlalarini rivojlantiruvchi o‘quv modullarini o‘qitilsa maqsadga muvofiq bo‘lardir. Bu esa amalaka oshirish jarayonida ham boshlang‘ich ta‘limda sinf rahbarlarining kasbiy kompetensiyalarini muntazam ravishda rivojlantirib borishda muhim omil bo‘lib xizmat qilar edi. Biz olib borgan tadqiqot ishimizda malaka oshirish jarayonida sinf rahbarlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari keng ekanligini asoslab berdik.

Boshlang‘ich ta‘limda sinf rahbarining tarbiyaviy ish faoliyati murakkab va ko‘p qirralidir. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek, ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatini keng doiradagi vazifalarni qamrab oladi hamda xilma-xil shakl va metodlar yordamida amalga oshiriladi.

Boshlang‘ich ta‘limda sinf rahbari o‘quvchilar jamoasi bilan, o‘z sinfida ish olib boradigan o‘qituvchilari bilan, maktab shifokori, otanonalar va jamoatchilik hamkorlikda ish olib boradi. Bu ishlarining samaradorligi va muvaffaqiyati ko‘p jihatdan uning kasbiy kompetentligining yuqori darajada rivojlanganligiga bog‘liq.

Biz mavzu yuzasidan olib borgan tadqiqotimiz natijasida quydagi tavsiyalarni berishimiz mumkin:

1. Sinf rahbarining ishini tashkil etish metodikasiga doir nazariy masalalarni o‘rganish, shunga taaluqli adabiyotlarni o‘qish va muhokama

etish, amaliy faoliyatida qo'llay olish.

2. Sinf rahbarini ishini tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalar, ma'ruzalar, to'garak ishlari, tadbirlar rejasini tayyorlash va ishlab chiqish lozim.

3. O'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini o'rganish, tahlil qilish, sinfdagi tarbiyaning monitoringi haqida ma'lumot to'plash, o'quvchilarni ishtimoiy moslashuvini ta'minlash va tarbiyalash maqsadida tavsiyalar ishlab chiqish.

4. O'quvchilarning psixologiyasini o'rganish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

5. Sinf rahbarlariga o'quvchilar bilan birga olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

6. Har bir sinf o'quvchilarining yosh va o'ziga hos xususiyatlarini hisobga olgan xolda tarbiyaviy ishlarning mazmunini aniqlashda sinf rahbarlariga yordamlashish.

7. Sinf rahbarining tarbiyaviy tadbirlarning ishlanmasi, rejasini tuzishni o'rganish.

8. Maktabdagi tarbiyaviy tadbirlarni pedagogik tahlil qilish va faoliyatiga o'zgartirishlar kiritib borishi.

9. Har bir o'quvchiga berilgan jamoat topshirig'ining mazmunini va unga qo'yilgan talabni ishlab chiqish.

10. Ota-onalar bilan muntazam ravishda ishlash va ish turlarini takomillashtirish lozim.

11. Sinf rahbarligi bo'yicha ilg'or pedagogik tajribalarni aniqlash, o'rganish, umumlashtirish hamda shu asosida ish tajribasini takomillashtirib borish.

12. Sinf rahbarligi bo'yicha o'z ustida ijodiy ishlash metodikasini bilishi va mustaqil bilim olishga o'rganish.

13. Yosh sinf rahbarlariga metodik yordam bera olishi, maslahat berish ular uchun o'qituvchilar bilan ishlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

14. Yakka tartibdagi murabbiylikni tashkil etish.

15. Tarbiyaga alohida yondoshish ya'ni o'quvchilar dunyoqarashini

ma'naviy, ma'rifiy, ahloqiy, huquqiy shakllantirish, komil inson qilib tarbiyalash masalalariga alohida yondoshish muammolarini yechish yo'llarini ishlab chiqish.

16. O'z ustida ishlash orqali kasbiy kompetentligini namoyon etadi.

17. Maktab hayotida va o'zing sinf rahbarlik faoliyatida tashabbuslarini namoyon qiladi, malakasini oshirib boradi va doimiy kasbiy o'sishga erishadi.

Boshlang'ich ta'limda sinf rahbari o'z sinfidagi o'quvchilarning eng yaqin murabbiyidir. Ularning vazifasi o'z sinfi o'quvchilar hayotini yo'lga qo'yishdan, ijtimoiy hayotga tayyorlashdan, ularni aqliy faoliyatlarini rivojlantirishdan, ularning kamol topib borishlarini boshqarishdan iboratdir. Sinf rahbari bu yuksak ishonchni oqlashi uchun, u ko'p narsalarni bilmog'i, pedagogik nazariya va tarbiya berish mahorati egalamog'i, ta'lim-tarbiya metodlarini ijodiy takomillashtirib barmog'i zarur. Faqat shundagina u o'z yo'lida uchraydigan qiyinchiliklarni yengib o'tib, davlatimizning mustaqiligi, ravnaqi yo'lida hamda jamiyatimizning faol quruvchisini tarbiyalab yetishtirishdagi sharafl hamda mas'uliyatli, murakkab, ammo savobli vazifasini muvaffaqiyatli ado etishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2014. -76 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. - T.: O‘zbekiston, 2020-yil, 23-sentabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni// “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017-yil 8-fevral.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-son Qarori// “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017-yil 7-aprel.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi faoliyati to‘g‘risida”gi PQ-3304-sonli Qarori// “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017-yil 4-sentabr.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5712-son Farmoni// “Xalq so‘zi” gazetasi, 2019-yil 30-aprel.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalari rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni// “Xalq so‘zi” gazetasi, 2020-yil 7-noyabr.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-son Qarori// “Xalq so‘zi” gazetasi, 2020-yil 7-noyabr.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy tadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4963-son Qarori// “Xalq so‘zi” gazetasi, 2021-yil 26-yanvar.
10. “Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar Konsepsiyasi” -T.: O‘zbekiston, 1993-yil.
11. “O‘quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi Konsepsiyasi” -T.: O‘zbekiston, 1993-yil.

12. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2022-yil 17-yanvardagi “Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom// “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017-yil 18-yanvar..

13. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2021-yil 22-fevraldagi 41-son buyrug‘iga ilova. Umumiy o‘rta ta’lim muassasasining sinf rahbarlari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida Nizom// “Xalq so‘zi” gazetasi, 2021-yil 23-fevral.

14. Allabergenov A.A., Akovbyans Ye.R. va boshqalar. Kasb etikasi va psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Cho‘pon nomidagi nashriyat-matbaa ijodiy uyi”, 2007. -118 b.

15. Asaqarova O‘M., Abdullaeva M.A., Botlaeva M. Andragogika. O‘quv qo‘llanma. – Namangan. “Namangan” nashriyoti. 2014. 111 b.

16. Choriyev R.K.Malaka oshirish tizimini modernizatsiyalashning o‘ziga xos xususiyatlari// Zamonaviy ta’lim. – Toshkent, 2014. №2. B.22-25. 24-25bb.

17. Davronov P.Z., Xudayberdiyeva X.K. Pedagogikaning kasbiy kompetentligi va mahorati. O‘quv qo‘llanma. Samarqand - “Samarqand chet tillar instituti” nashriyoti, 2021. -162 b.

18. Egamberdiyeva N.M., Muxsiyeva A.Sh. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O‘quv-uslubiy majmua. Jizzax – 2019. 238 b.

19. Gaffarova A.M. Xalq ta’limi xodimlari malakasini oshirishning uzviyligini ta’minlashda kredit-model tizimining ahamiyati. Zamonaviy ta’lim ilmiy-amaliy ommabop jurnal. №1 (86) 2020 yil. 12-16 bb.

20. Ibragimov A.A.Xalq ta’limi xodimlarini malakasini oshirish tizimini modernizatsiyalash parametrlari. Monografiya. Samarqand – 2019. 183 b.

21. Ibragimov A.A. Pedagogning individual ta’lim trayektoriyasini loyihalash va amalga oshirish. Uslubiy qo‘llanma. – Samarqand. SamDCHTI, 2020. 92 b.

22. Ibragimov A.A., Fayzullayeva G.Sh. Malaka oshirish kurslarida amaliy mashg‘ulotlarni tashkil qilish va o‘tkazish. Uslubiy qo‘llanma. – Samarqand: SamDU, 2020. 104 b.

23. Inoyatova M., Nosirov A., Divanova M. va boshqalar. Boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni qo‘llash (ingliz tili, alifbe, ona tili, o‘qish, matematika va

tabiatshunoslik o'quv fanlari misolida). Ilmiy-metodik qo'llanma. – T.: O'zPFITI nashriyoti, 2014. -160 b.

24. Ismailova Z.K. Zamonaviy o'qituvchilarning pedagogik mahorati va pedagogik texnikasini oshirishda boshqaruv san'atidan foydalanish. Zamonaviy ta'lim ilmiy-amaliy ommabop jurnal. №7 (92) 2020 yil. 7-15 bb.

25. Jo'rayeva S.N. Zamonaviy pedagog imijini shakllantirishda psixologik omillar ta'siri. Zamonaviy ta'lim ilmiy-amaliy ommabop jurnal. №1 (86) 2020 yil. 49-55 bb.

26. Jumanov A.A. Kasbiy faoliyatga tayyorgarlikda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi. Zamonaviy ta'lim ilmiy-amaliy ommabop jurnal. №7 (92) 2020 yil. 50-56 bb.

27. Kiyomov N., Pardayeva G., Pulatova M. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O'quv-uslubiy majmua. Samarqand – 2020. -268 b.

28. Knowles M.S. The Adult Learner: The Definitive Classic in Adult Education and Human Resource Development/ M.S. Knowles, E.F. Holton III, R.A. Swanson. 6th ed. L.: ELSEVIER Butterworth Heinemann, 2005. - 189 p.

29. Koshanova N.M. Umumta'lim maktablarida sinf rahbarlari faoliyatini rivojlantirish mexanizmlari (klister yondashuvi asosida): Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. Avtoreferat. – Chirchiq. 2021. -48 b.

30. Mallayeva O. Xalq ta'limi tizimida uzluksiz kasbiy rivojlanish muammolari (malaka oshirish misolida). Xalq ta'lim. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali. 3-son 2021-yil (may-iyun). 57-61 bb.

31. Mamatqulov A.N. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining ijodkorligini rivojlantirish orqali kasbiy faoliyatga tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari. Zamonaviy ta'lim ilmiy-amaliy ommabop jurnal. №1 (86) 2020 yil. 35-41 bb.

32. Mardonov G'. Noan'anaviy usulda ota-onalar majlisini o'tkazish. "Ta'limda texnologiyalar: tajriba almashish va strategiyalarni belgilash" mavzusidagi tinglovchilar konferensiyasi materiallari. I-qism. Samarqand 2019 155-158 bb.

33. Mavlonova R., Voxidova N., Raxmonqulova N. Pedagogika nazariyasi va tarixi. -T.: "Fan texnologiya", 464 b.

34. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.X. va boshqalar. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik. – T.: “O‘qituvchi”, 2014. -144 b.
35. Pedagogik atamalar lug‘ati T.: 2019 –B 116.
36. Maxsudov P.M. Professional ta‘lim tizimi uchun pedagoglar tayyorlash: muammo va takliflar. Zamonaviy ta‘lim ilmiy-amaliy ommabop jurnal. №7 (92) 2020 yil. 42-49 bb.
37. Mustafoyeva D.A. Oliy ta‘lim muassasalari ixtisoslik fan o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish. Zamonaviy ta‘lim ilmiy-amaliy ommabop jurnal. №7 (92) 2020 yil. 27-35 bb.
38. Musurmanova O. Pedagogik texnologiyalar – ta‘lim samaradorligi omili. Monografiya. – T.: “Yoshlar nashriyoti uyi”, 2020. - 183 b.
39. Raximov Z.T. Ta‘lim jarayonida talabalar o‘quv-bilish kompetentligini rivojlantirish. Zamonaviy ta‘lim ilmiy-amaliy ommabop jurnal. №3 (88) 2020 yil. 3-10 bb.
40. Raximqulova M.B. Malaka oshirish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining uzluksiz kasbiy kompetentligini takomillashtirish. Xalq ta‘lim. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali. 6-son 2021-yil (maxsus). 79-83 bb.
41. Shodiyev N. Непрерывное повышение квалификации – важнейшее условие подготовки преподавателей общеобразовательных предметов к осуществлению экономического образования и воспитания учащихся профессиональных колледжей// “Iqtisodiyotni erkinlashtirish va jamiyatni modernizatsiyalashtirish sharoitida kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash muammolari” mavzusidagi resp. ilmiy-amaliy anjumani mater. – Samarqand, 2006. -356 b. 222-224 bb. 223 b.
42. Shodiyev N., Maxmatmurodov Sh., Axmedova Sh. Mustaqil ta‘lim. Uslubiy qo‘llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2005. -136 b.
43. Shodiyev N. Yangi pedagogik texnologiyalar (Boshlang‘ich ta‘lim uslubiyati va tarbiyaviy ish uslubiyati va mehnat ta‘limi yo‘nalishlarida ta‘lim oluvchilar uchun o‘quv-uslubiy qo‘llanma). – Samarqand: SamDU nashri, 2005. -124 b.
44. Shodmonova G., Ibragimova N.D., Hojimumamedova R. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Metodik qo‘llanma. T.: – 2011. 356 b.

45. Turgunov S.T., Daniyarov B.X., Umaraliyeva M.A. va boshqalar. O‘qituvchilarning kasbiy mahorat va kompetentligini rivojlantirish. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2012. -172 b.

46. Xasanova K. Talaba yoshlarni oilaviy munosabatga tayyorlashning pedagogik asoslari. O‘quv qo‘llanma. – T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2019. – 168 b.

47. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Psixologiya fanlarini o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Aloqachi”, 2007. –B. 176. 17-18 b.

48. Ximmataliyeva D.O. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish mexanzmi. Zamonaviy ta’lim ilmiy-amaliy ommabop jurnal. №7 (92) 2020 yil. 16-26 bb.

49. Yo‘ldashev M.A.Xalq ta’limi xodimlarining malakasini oshirishda ta’lim sifati menejmentini takomillashtirish: ped.fan.dok.diss. Avtoreferati. – T.: 2016. – 92 b. 30-31 bb.

50. Yo‘ldoshev J.G‘. Ta’lim yangilanish yo‘lida. O‘quv qo‘llanma. – T.: “O‘qituvchi”, 2000. -207 b.

51. Рахматуллаева М.Ж. Ўсмирларда синфдан ташқари ишлар жараёнида табиат эстетикасига қизиқишларни шакллантириш: педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореферати.: - Т.: 2021. - 28б.

52. Шепель В.М.Имиджелогия: учебное пособие. М.: Народное образование, 2002. 254 с.

MUNDARIJA:

KIRISH	3
1-§. Boshlang‘ich ta‘limda sinf rahbari faoliyatining mazmuni va mohiyati.	5
2-§. Boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarining sinf rahbari sifatidagi faoliyatini tashkil qilishning mavjud holati.	23
3-§. Boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarining sinf rahbari sifatidagi kompetentligini rivojlantirish modeli.	37
4-§. Malaka oshirish jarayonida boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarining sinf rahbari sifatidagi faoliyati mazmunini yangilashning ilmiy-metodik imkoniyatlari.	49
5-§. Malaka oshirish kurslarida boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarida sinf rahbari sifatidagi kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o‘tkazish.	63
6-§. Boshlang‘ich ta‘limda sinf rahbarlarining faoliyatining ish uslubini tahlili	75
XULOSA.....	83
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	90

RAXIMQULOVA M.B., NURMANOVA D.J.

**BOSHLANG‘ICH TA‘LIMO‘QITUVCHILARINING SINFI RAHBARI
SIFATIDAGI KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH
(MALAKA OSHIRISH KURSLARI MISOLIDA)**

Uslubiy qo‘llanma

“Bilig-ilmiy faoliyat” nashriyoti

Muharrir: Fayzullayeva G.

Texnik muharrir: Xujakulov Sh.

Nashrga tayyorlovchi: Abdullayev F.



№ 098355

ISBN: 978-9910-9913-2-5

“Bilig ilmiy faoliyat” nashriyoti,
Joylashgan mazili Samarqand viloyati, Samarqand shahar,
Zavod ko‘chasi 9-uy, 10-xona. Faoliyat manzili Samarqand viloyati,
Samarqand shahar, X.Obiddinov ko‘chasi 7-uy.
tel.: +998 97-925-97-91

Terishga berildi: 14.10.2023-yil. Bosishga ruxsat etildi: 14.11.2023-yil.
Bichimi 60x84^{1/16}, “Times New Roman” garniturasini.
Bosma tabog‘i 6,25. Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 2023/ UQ 13
Bahosi kelishilgan narxda
Noshirlik litsenziyasi: № 098355

Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish
milliy markazi bosmaxonasida nashr etildi